

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/354545653>

# O‘zbekiston eng yangi tarixini o‘qitishda interfaol usullar

Book · September 2021

---

CITATIONS

0

READS

3,598

1 author:



Xoliqova Rahbar

Tashkent State Technical University

179 PUBLICATIONS 0 CITATIONS

SEE PROFILE

Xoliqova R.E

# O'ZBEKISTON ENG YANGI TARIXINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLAR



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**O'zbekiston eng yangi tarixini o'qitishda interfaol  
usullar**

**o'quv- uslubiy qo'llanma**

**TOSHKENT 2021**

O‘zbekiston eng yangi tarixini o‘qitishda interfaol usullar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Xoliqova R.E., – Toshkent, ToshDTU, 2021. 124 b.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari hamda talabalari uchun O‘zbekiston eng yangi tarixi fanini o‘qitishda interfaol usullardan seminar darslarida foydalanish uchun tavsiya etilmoqda.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma zamonaviy o‘qitish tizimining jaxon andozalariga mos ilg‘or uslublariga asoslangan ravishda, O‘zbekiston eng yangi tarixi faniga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, fan yuzasidan seminar darslarini interfaol usullarda o‘qitish qo‘llanmada to‘laqonli ravishda o‘z aksini topgan.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston eng yangi tarixi fanining 90 soatli dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda 30 soat seminar dasturi bo‘yicha o‘tiladigan mavzular o‘rin olgan. O‘quv-uslubiy qo‘llanma nomutaxassis fakultetlar bakalavriat yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan.

### **Taqrizchilar:**

D.B.Bobojonova- tarix fanlari doktori, professor.

N.U.Mahkamova-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashining qaroriga muvofiq chop etildi.

( 2021 yil martdagisi -sonli bayonnomasi)

## KIRISH

Intellektual salohiyat va fan-texnika yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi davrda ta’lim tizimiga ham texnologik yondashuv davr talabidir. Pedagogik texnologiyalar bir tomonidan o‘qituvchining kasbiy mahoratini ilg‘or o‘qitish usullari va texnik vositalar yordamida faollashtirish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ikkinchi tomondan pedagogik ta’sirni kuchaytirish, uning samarasini oshirish asosida talabaning bilimi faoliyatini boshqarish, fanlarni o‘zlashtirish qobiliyatini o‘stirish vositasida ta’lim jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni, jumladan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi”ni o‘rganish va o‘qitishning samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari, jumladan, interfaol o‘qitish usullarining ahamiyati katta. “Interfaol”, ya’ni “interaktiv” atamasi ingliz tilidan kirib kelgan “interact” so‘zidan yasalgan bo‘lib, “inter” - “o‘zaro”, “act” - “harakat qilmoq” ma’nolarini anglatadi. Interfaollik-o‘zaro, birligida harakat qilish yoki biror narsa (masalan, inson bilan) suhbat, munozara yoki muzokara holatida bo‘la olish qobiliyatidir. Shunga ko‘ra suhbat, munozara va muzokara tarzida o‘qitish, ya’ni interfaol o‘qitish avvalo o‘qituvchi va talabaning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatidir. Interfaol o‘qitish-bu bilish faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, u aniq maqsad va vazifalar hamda ularni amalga oshirish usullarini o‘z ichiga oladi. Bunday maqsadlardan biri o‘qitishning qulay, ya’ni talaba o‘zini har tomonlama namoyon qila oladigan shart –sharoitlarni yaratishdir.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan seminar mashg‘ulotlarida interfaol usullarni qo‘llash o‘quv jarayonini jadallashtirish, talabalar tomonidan mavzularni o‘zlashtirish darajasini yuksaltirish, ularni mustaqil fikrlashga va o‘z fikrini bayon etishga o‘rgatish vazifasini samarali hal qilish uchun shart-sharoit yaratadi. Bunga erishishda interfaol usullarni to‘g‘ri tanlash va ularni qo‘llash o‘rinlarini aniq belgilab olish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi seminar darsidan ko‘zlanayotgan asosiy maqsad va uning mavzusi rejasiga kiritilgan masalalarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda bugungi kunda ta’lim amaliyotida foydalilanayotgan “Fikriy hujum”, “Yalpi fikriy hujum”, “Fikrlarning shiddatli hujumi”, “6x6x6x6”, “Aqliy hujum”, “Intervyu”, “Klaster”, “Bilag‘onlar ko‘chasi”, “Taqdimot” kabi interfaol usullardan birini tanlaydi.

Masalan, “Intervyu” (intervien) usuli talabalarga muayyan mavzudan egallagan bilimlari, muhokama qilinayotgan masala yuzasidan ularning nuqtai nazarlari va qarashlarini ochiq bayon qilish imkoniyatini yaratish asosida ularning faolliklarini ta’minlaydi. Unda seminarda muhokama qilinayotgan savollar soniga qarab talabalar orasidan axborotchi va reportyorlar (savol beruvchilar) tanlanadi. Bu usuldan “O‘zbekiston mustaqil davlat”, “O‘zbekiston va jahon hamjamiyati”

mavzularidan seminar o‘tishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. “Klaster”-o‘rganilayotgan mavzuga oid asosiy fikr va tushunchalarni uzviy ketma-ketlikda bog‘lagan holda tarmoqlash hamda ifodalash usulidir. “Klaster” tuzishda mavzuga tegishli asosiy tushuncha, aniq fikrlarni ajratib olib, iloji boricha ularni izohlash va aniqlik kiritishga imkon beruvchi yangi g‘oyalarni ilgari surish, mazkur g‘oyalarni o‘rtasidagi, o‘zaro aloqadorlik hamda bog‘liklikni tushunib olish, uni chizmada ifodalash talab qilinadi. “Klaster” usuli talabalarni mantiqiy fikrlash, shaxsiy o‘yg‘oyalarni erkin va ochiq bayon etishga o‘rgatadi. Bu usul muayyan mavzuni talabalar puxta o‘zlashtirib olgunlariga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. “O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining shakllanishi” mavzularidan seminar mashg‘ulotlarini o‘tishda mazkur usuldan foydalanish yaxshi samara beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida foydalanilayotgan interfaol usullar ichida taqdimotning ahamiyati katta. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’limning samaradorligi ma’ruzalarda-5%, o‘qishda-10%, munozarada-50%, amaliy mashg‘ulotda-75%, talabalar bir-birini o‘qitganda, ya’ni taqdimotda-95% ni tashkil etadi. Keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, talabalar bir-birini o‘qitishi, guruh a’zolarining o‘zlari birgalikda bajargan ishlari natijalarini ko‘rgazmali va texnik vositalar yordamida taqdim etishi bilim berishda qo‘llaniladigan usullarning eng samaralisidir. Bu usul talabalarni faollashtirish orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish, ularni o‘qitishning an’anaviy usullari bilan muvozanatlari muvofiqlashtirish talabalarga chuqur bilim berish imkoniyatini beradi. Interfaol usullar talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirib, mantiqiy fikrlash, mustaqil ishslash, babs-munozara yuritish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi, ularni o‘z fikrlarini bayon qilish hamda tanqidiy nuqtai –nazardan yondashishni o‘rgatadi.

## **1-SEMINAR. MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR (2 SOAT).**

### **Reja:**

1. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat.
2. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi" "O'zbek ishi" nomli kompaniyalar. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi.
3. Farg'ona voqealari. 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi.
4. I.Karimov-O'zbekistonning Birinchi Prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1991-yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

### **Seminar mashg'ulotining loyihasi.**

**Mashg'ulotning maqsadi va vazifalari:** Mustaqillik arafasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida inqirozning keskinlashgan davrida, ya'ni 1983-yilning oxirida respublikada juda og'ir vaziyat vujudga kelganligi, Osha davlarda ozbeklar hayotida "Paxta ishi" va "o'zbeklar ishi" deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketganligini ochish, **1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylangligi**, uning faoliyati O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilishga qaratilganligi, respublika rahbarining qat'iyatli harakati bilan nohaqlik barham topganligini yoritish.

**Mashg'ulot usullari:** "Qisqa ma'lumotnoma", "Davra suhbati", "Taqqoslash", "O'zingni tekshir", "Konseptual jadval".

**Mashg'ulot instrumenti:** A4 formatdagi qog'oz, rangli ruchka va markerlar, A3 formatdagi tasvir tushirilgan ilova, tablitsa.

**Mashg'ulotdan kutilayotgan natija:** Talabalar bilimi doirasida baholanadi.

**Seminar mashg'ulotini o'tkazish tartibi:** mashg'ulot 4 ta bosqichda o'tkaziladi.

**1-bosqich.** O'qituvchi XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat, markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati, "Paxta ishi", "O'zbek ishi" nomli kompaniyalar, aholi turmush tarzining og'irlashuvi, Orol fojiasi, Farg'ona voqealari, 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar, milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi, I.Karimov – O'zbekistonning Birinchi Prezidenti, mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati haqida ma'lumot beradi (1-ilova).

**2-bosqich** “Davra suxbati” usulida amalga oshiriladi. Talabalarga munozara uchun savollar tarqatiladi (2-ilova). Talabalarga ushbu mashg‘ulotni bajarish uchun 5-7 daqiqa ajratiladi. Topshiriqni bajarib bo‘lgach 3-5 daqiqa oralig‘ida og‘zaki taqdimot qilinadi. Ushbu mashg‘ulotni bajarganligi uchun 1.0 ball taqdim etiladi.

**3-bosqich.** “**Ushbu bosqichda** “Taqqoslash” usulidan foydalanib “Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy ildizlarining birligi” jadvali yordamida Markaziy Osiyo xalqlarining xududining yaxlitligi, turmush tarzi, an’analari, urf–odatlarining yaqinligi, suv resurslarining umumiyligi, madaniyatlarinig mushtarakligi, ma’naviy-axloqiy, diniy qarashlarining mushtarakligi xaqidagi ma’lumotlar bilan jadvalni to‘ldirishlari kerak (3-ilova). Ushbu bosqichda shuningdek O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning asarlari inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlari o‘z siyosatini bosh maqsadi ekanligi uchun har bir talaba bu asarlardan baxramand bo‘lishlari kerak. “O‘zingni tekshir” usulini qo‘llagan holda talabalarga yana bir jadvalni to‘ldirish taklif etiladi. Talabalar aynan uning asarlari haqidagi “I.A.Karimovning mustaqillik yillarida yozgan asarlari” jadvalini to‘ldirishlari kerak.

**4-bosqich** taxliliy bosqich hisoblanadi. Konseptual jadval yordamida talabalar mustaqillik arafasida respublika viloyatlardagi iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy jarayonlarni tahlil qiladilar. Talabalar guruhlarga bo‘linadilar va har bir guruh bitta viloyatni olib, tarixiy jarayonlar tahlil qilinadi. Mashg‘ulotga tayyorlanish uchun 5-10 daqiqa beriladi, so‘ngra har bir guruh tayyorgarligidan kelib chiqib og‘zaki taqdimot qiladi. Mashg‘ulot yakunida bildirilgan fikrlar umumlashtiriladi.

### **Bajarilgan ishlar: a’lo, yaxshi va qoniqarli deb baholanadi.**

**1-ilova**

#### **“Qisqacha ma’lumotnoma” usuli.**

**“XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat”.**

XX asrning 80-yillari o‘rtalarida sobiq SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida inqirozning keskinlashgan davrida, ya’ni 1983-yilning oxirida respublikada juda og‘ir vaziyat vujudga kelgan edi. Birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida sobiq markazdan ketma-ket turli tergov guruhlari tashlandi. Respublikamizdagi rahbarlik lavozimlariga sobiq Ittifoqning har xil joylaridan kadrlar kela boshladi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibligiga Anishchev, Ministrlar Soveti Raisining birinchi o‘rinbosari Ogarok, Oliy Kengash Prezidiumi raisining o‘rinbosari etib Romanovskiylar tayinlandi, Toshkent shahrining taqdiri Satinga topshirildi.

Respublika prokurori etib Buturlin, uning o‘rinbosarligiga Gaydanov, tergov boshliqligiga Laptev, Ichki ishlar vazirligiga Didorenko tayinlandi. Barcha viloyatlarda ham ahvol shunday bo‘lib, ular respublikadagi hukmronlikni to‘la qo‘lga olgan edilar.

Aynan shu davrlarda davlatni boshqarib turgan kamtarin va donishmand davlat arbobi Sharof Rashidovning shaxsiga nisbatan turli boxtonlar uyushtirildi. “Ma’lumki, Sharof Rashidov respublikaga qariyb chorak asr etakchilik qildi. O‘tmishni yashirishning xojati yo‘q. Sharof Rashidov o‘z davrining farzandi edi, u mavjud tuzumga sadoqat bilan xizmat qildi. Ammo bedodlikni qarangki, shunday odam dunyodan ko‘z yumganda o‘zi umr boyi himoya qilgan, sodiq bo‘lib xizmat qilgan tuzum unga xiyonat qildi” (Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. T.,Ozbekiston, 2017 y., 344 bet.). Hech shubha yo‘qki, Sharof Rashidov nomini o‘zbek xalqining tarixidan, hayotidan ayri tassavur qilib bolmaydi. Sharof Rashidov o‘z xalqiga va vataniga fidoyi farzand edi. Faqatgina istiqlol yillarida Sharof Rashidov nomi qayta tiklandi. 2018 yil respublikamizda atoqli davlat arbobi Sharof Rashidov tavallidining 100 yilliga keng miqiyosda nishonlandi.

Osha davlarda o‘zbeklar hayotida “Paxta ishi” va “o‘zbeklar ishi” deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi o‘zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo‘ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi.

**1989-yilgacha bu ishlar bo‘yicha 4,5 mingdan ko‘proq kishi sudlandi.** O‘sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig‘i jazoni o‘tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo‘natildi.

**Gdlyan guruhi** O‘zbekiston hududida cheklanmagan vakolatlarga ega bo‘ldi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a’zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qyinoqqa solish avj oldi. Hibsga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o‘z jonlariga qasd qilishgacha borib etdilar.

O‘zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskvaga minglab xatlar jo‘natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmasdan, hatto javob yozishga ep ko‘rilmadi. Aksincha Gdlyan va uning gumashtalariga ketma-ket unvonlar berildi.

**1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi.** Yangi rahbarning faoliyati O‘zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi oliyjanob va xayrli ishdan boshlandi.

**“Paxta ishi”ni** ko‘rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko‘rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni

Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko'rsatildi. Bu xatda "Paxta ishi" chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko'mak o'rniga **tazyiqni** kuchaytirdilar.

Respublika rahbarining qat'iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko'proq vaqt orasida **40 ming tomlik ishni ko'rib** chiqdi. **3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi**. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi Prezidentimiz tomonidan avf etildi.

KPSS MK Aprel (1985 y) plenumi sovet jamiyatini "**qayta qurish**", bu jamiyat hayotining barcha sohalarini "chuqur isloh qilish" yo'lini e'lon qildi. Bunda avvalo **ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, oshkoraliq, iqtisodiy o'sishni fan texnika yutuqlariga tayanib jadallashtirishga** qaror qilindi.

Biroq uzoq yillar totalitar rejimga moslashgan davlat monopoliyasi, idoralari byurokratik apparat ko'zda tutilgan rejalarni amalga oshirishga yo'l qo'ymadi.

XX asrning 80-yillari o'rtalariga kelib mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilmasdan 90-yillarning oxiriga borib, sobiq SSSR da milliy daromadni 2-2,5 barobar o'stirish, aniqrog'i avvalo 70 yil ichida amalga oshirilgan ishlarni keyingi 15 yil ichida bajarish vazifalari qo'yildiki, bular mutlaqo haqiqatdan uzoq edi. Bu hol tabiiy ravishda 70-80 yillar boshlarida jamiyat oldidagi muhim xalq xo'jaligi vazifalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish bilan emas, balki qo'shib yozish, pora berish, oshna-og'aynigarchilik bilan osongina hal qilishga olib keldi.

Davlat rejashtirish tizimi murakkab ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan hal qilishga qodir bo'lmay qoldi. Natijada iqtisodiy o'sish har yiliga kamayib bordi. Respublika xalq xo'jaligida umumiy ijtimoiy **mehnat unumdarligining pasayishi hisobiga mo'ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so'mga kam milliy daromad** olindi. 1989 yilda **O'zbekistondagi har bir kishiga sobiq ittifoqdagi o'rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag'** to'g'ri keldi.

Shu davrga kelib respublika qishloq xo'jaligida ko'plab muammolar to'planib qoldi. Sovet tuzumining navbatdagi islohoti ham yo'l qo'yilgan xatolar tufayli barbod bo'ldi.

Kommunistik mafkura o'z hukmronligini saqlab qolish uchun hatto ayrim respublikalarda millatlararo nizolarni uyushtira boshladi. 1989-yilda **Toshkent, Farg'ona, Andijonda** ro'y bergen millatlararo mojarolar, **Kavkazdagi** qurolli to'qnashuvlar, quvg'in qilingan xalqlarni noroziliklaridan razilona manfaat yo'lida, respublikalarda, shu jumladan O'zbekistonda paydo bo'layotgan hurlik ovozini bo'g'ish uchun foydalandilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan **deportatsiya** qilingan bir qator xalqlar qatorida **mesxeti turklari** ham bo‘lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg‘ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan bo‘lib, buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo‘srimcha muammolarni yuzaga keltirgan edi. Bu muammoga sovet davlati o‘z vaqtida e’tibor bermadi. 1989-yil 24-mayda Quvasoy shahrida Yoshlar o‘rtasida (R. Nishonov ta’rificha, “bir banka qulupnay uchun”) bo‘lgan bezorilik millatlararo (mahalliy Yoshlar bilan mesxeti turklar o‘rtasida) to‘qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg‘ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to‘g‘ri baholay olmagani uchun yoshlarning ommaviy chiqishlari, millatlararo to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi.

Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlariga “ko‘nikmagan” mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989 yil **8 iyunda Qo‘qonda** tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o‘qqa tutildi. Natijada, **50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok** bo‘ldi (ularning ko‘pchiligi Yoshlar edi), **200 dan ortig‘i esa yarador** qilindi. Umuman **3-12 iyun kunlari Farg‘ona** viloyatida bo‘lgan millatlararo to‘qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o‘qqa tutilishi oqibatida **103 kishi halok** bo‘lgan. **1009 kishi yarador** bo‘lgan va **650 xonadonga o‘t** qo‘yilib, vayron qilingan.

Mudhish voqealardan keyin berilgan rasmiy bayonotlarga ko‘ra, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikdan ommaviy tartibsizliklarni, millatlar o‘rtasida nifoq va to‘qnashuvlarni keltirib chiqarishga uringan ekstremistik kuchlar turgan. **Bu ataylab uyuştirilgan siyosiy ig‘vagarlik edi.** Farg‘onadagi mudhish voqealari Sumgayit, Boku, Tog‘li Qorabog‘, O‘sh-O‘zgan va boshqa mintaqalarda xuddi shunday tarzda uyushtirilgan ig‘vagarlik bilan bir qatorda turar edi. Farg‘ona voqealaridan keyin O‘zbekistonning I.Karimov boshliq siyosiy rahbariyati bu masalada fojeaning asl sabablarini ochib tashlash, o‘z xalqining shon-shuhrati va qadr-qimmatini himoya qilish yo‘lidagi o‘zlarining mashaqqatli urinishlarida ular respublikaning eng keskin muammolarini birinchi bor oshkora ravishda muhokamaga qo‘ya boshladilar.

70 yildan ziyod davom etgan mustabid sovet tuzumi va Kommunistik partiya yakka hukmronligi davrida o‘zbek xalqining milliy urf-odatlar va an’analarga qattiq zarba berildi. KPSS mafkuraviy siyosatining SSSR xalqlari ma’naviyatiga salbiy ta’siri natijasida jamiyatda madaniy-ahloqiy muhit zaiflashdi, ma’naviy qashshoqlik sovet jamiyatini inqirozga yetaklovchi kuchga aylandi. Bu holat oxir-oqibatda milliy tillarning jamiyat hayotidagi mavqeini pasayishiga, uzoq yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlar, urf-odatlar, an’analarni

“o‘tmishning zararli sarqiti” sifatida ta’riflashga, ma’naviyatning uzviy qismi bo‘lgan dinni “xurofot va bid’at” deb talqin qilinishiga va shu asosda millatlarni qaramlik holatida saqlab turishga asos bo‘ldi. Bu o‘z navbatida “yagona madaniyat” barpo etishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan edi.

Tabiiyki, sobiq SSSRda istiqomat qilgan turli xalq va elatlarning madaniyati shakli jihatidan har xil edi. Shubhasiz, har bir xalqning zabardast madaniyat arboblari - atoqli olimlari, yozuvchilar, rassomlari, bastakorlari kabi o‘ziga xos jihatlari ko‘pdir. Ular o‘z navbatida jahon fani va madaniyatiga munosib hissa qo‘sib kelganlar. Garchi, bu yutuqlarning aksariyati sotsialistik ruh berib turuvchi baynalmilal madaniyat bo‘lsa-da, uning ko‘p jihatlari yuqori saviyaga mutlaq javob berar edi.

Bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan, uzoq yillar davomida nishonlab kelingan “Navro‘z” bayrami ham aynan mana shu yillarda ta’qibga uchradi. Tarixdan ma’lumki, “Navro‘z” bayrami dehqonlar uchun yangi mehnat yili boshlanganini bildirar, bu bayram an’anaga muvofiq bahorda kun va tun tenglashganida nishonlanar edi. “Navro‘z” bayrami asrlar davomida kishilarda ona yerga, tabiatga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otgan, kishilarni bir-biriga nisbatan mehr-muruvvatli va oqibatli bo‘lishiga chorlagan. Biroq, XX asrning 80-yillarning o‘rtalarida “Navro‘z” bayramini O‘zbekistonda umumxalq bayrami sifatida nishonlash masalasida paydo bo‘lgan to‘siqlar qattiq tortishuvlarga ham sabab bo‘ldi. “Navro‘z” bayramiga qarshi harakatlar ham milliy madaniyatlarni qoralash va cheklashga qaratilgan tadbirlarning biri edi. O‘zbekiston SSR Kompartiya 16-plenumi (1984) dan so‘ng yuzaga kelgan vaziyat I.Usmonxo‘jaev va R.Abdullayevaning sa’y-harakatlari natijasida 1986-yilga kelib “Na‘vro‘z” bayrami bekor etildi. Islom diniga aloqasi bo‘lmagan bayramga “diniy” degan tamg‘a bosildi.

Dastlab bu bayram, aprel oyining o‘rtalaridan sun’iy o‘ylab topilgan “Navbahor” nomli bayram bilan almashtirildi. Biroq, bunday bayramlarning **taqiqlab** qo‘yilishi xalq noroziligiga sabab bo‘la boshlaganligi uchun milliy an’analar, marosimlar va bayramlarni qayta tiklash jiddiy masalaga aylandi. “Navbahor” deb atalgan yangi bayram moddiy zaminga ega bo‘lmaganligi sababli uzoq yashay olmadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, “Navro‘z” bayramini **taqiqlash** haqida respublikada aniq, bir qaror qabul qilinmasada, lekin respublika rahbariyati turli yig‘inlarda bu bayram va uning “zararli” tomonlari haqida ma’ruza qilib, yangi madaniyatni shakllantirishda asosiy to‘siq deb ta’riflab keldilar.

XX asrning 80-yillari shuningdek, O‘zbekistonda dinga va diniy qadriyatlarga qarshi yangi harakatlar bo‘lganligi bilan ham xarakterlanadi. Bu

yillarda mamlakatda diniy idoralarni qattiq nazorat ostiga olish, ularning sonini kamaytirish va faoliyatini doimo nazorat ostida olib turish kuchaydi.

## **2-ilova**

**“Davra suhbati” usuli.**

Munozara uchun savollar:

1. O‘zbekistonni inqirozli jarayonlarga olib kelgan holatlar qaysilar?
2. XX asr ikkinchi yarmidan to mustaqillikkacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston madaniy-ma’naviy qaramlik qanday oqibatlarga olib keldi?
3. 50-80- yillar respublika iqtisodiy hayotidagi bir tomonlik va uning oqibatlarini tushuntirib bering.
4. Respublikada ekologik holatning keskinlashishi sabablari nimada edi?
5. Nega O‘zbekiston o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanladi?
6. Sharof Rashidov faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
7. O‘zbekiston Respublikasi “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qachon qabul qilingan?
8. 80-yillardagi qatag‘onlik xususida so‘zlab bering.
9. “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” yuzasidan tergov jarayonlari kimlar tomonidan olib borilgan?
10. 1989 - yil respublika rahbarligiga saylangan shaxs kim edi?

Savollarga javob berish uchun 5-7 daqiqa ajratiladi.

Og‘zaki javoblarga 3-5 daqiqa.

Maksimal ball-1.0.

### **3- ilova**

**“Taqqoslash” usuli**

**“Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy ildizlarining birligi”**

	Hudud-ning yaxlitligi	Turmush tarzi, an’analari, urf-odatlarining yaqinligi	Suv resurslari-ning umumiyligi	Madaniyat-larining mushtarakligi	Ma’naviy axloqiy, diniy qarashlarining mushtarakligi.
O‘zbekistonda					
Qozog‘istonda					
Tojikistonda					
Qirg‘izistonda					
Turkmanistonda					

## **“O‘zingni tekshir”usuli.**

## Jadval “I.A.Karimovning mustaqillik yillarida yozgan asarlari”

## **5-ilova**

### **“Konseptual jadval”usuli**

#### **“MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR”**

	Farg‘ona	Buxoro	Samarqand	Qashqadaryo	Xorazm
Hududi					
Administrativ bo‘linishi					
Aholi tarkibi					
Etnik kelib chiqishi					
Ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti					
Madaniy taraqqiyoti					
Soliq tizimi					

## **2-SEMINAR. MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. (2 SOAT) REJA:**

1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol.
2. Mustaqillikning e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasining tashkil etilishi.
3. Mustaqil O'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.Karimovning tarixiy xizmatlari.

### **Seminar mashg'ulotining loyihasi.**

**Mashg'ulotning maqsadi va vazifalari:** Talabalar mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Mustaqillikning e'lon qilinishi, O'zbekiston respublikasining tashkil etilishi va bu jarayonlarning boshida O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Abduganiyevich Karimov turganligi va uning xizmatlarini tarixiy manbalar asosida tahlil qila olish ko'nikmasi shakllantiriladi.

**Mashg'ulot usullari:** “Venn diagrammasi”.”Tarixga baho”. “5 daqiqalik annotatsiya”.

**Mashg'ulot instrumenti:** Talabalar bilimini baholash uchun (ularning sonidan kelib chiqib) “Venn diagrammasi” tushirilgan A3 formatdagi qog'oz, “Tarixga baho” tushirilgan A3 formatdagi tasvir tushirilgan qog'oz.

**Mashg'ulotdan kutilayotgan natija:** “5 daqiqalik annotatsiya” usuli orqali talabalar bilimini baholash.

**Seminar mashg'ulotini o'tkazish tartibi:** “Venn diagrammasi” yordamida mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulot boshlanishidan oldin auditoriya diagramma asosida tayyorlanadi. Ushbu mashg'ulot 4 bosqichda o'tkaziladi. Kutilayotgan natijalar va qo'yilgan vazifalarni tushinishlari uchun bahsli munozarali mashg'ulot bo'ladi. O'qituvchi guruhni 2 ga bo'lib rangli kartochkalar tarqatadi.

**1-bosqichda** Har bir guruhga “**Mustaqil O'zbekiston respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati**” mavzusi doirasidagi: “**Venn diagrammasi**” tushirilgan plakat tarqatiladi. Guruh ishtirokchilari belgilangan vaqt ichida mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol haqida va undagi viloyatlardagi ahvolning umumiyligini aniqlaydilar (**1-ilova**)

**2-bosqichda** guruhanlar javobi tahlil qilinadi. O'qituvchi rahbarligida javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi aniqlanadi. Noto'g'ri javoblar uchun

to‘g‘ri javobga qo‘yiladigan ballardan ma’lum ballar echib olinadi. To‘g‘ri javob bergen ko‘p ball to‘plagan gurux rag‘batlantiriladi.


**3-bosqichda.** Bu bosqichda ikkala guruhga “**Tarixga baho**” jadvali tarqatiladi. Talabalar Sharof Rashidov va O‘zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimovlarning tarix oldidagi xizmatlariga baho beradilar. Shu tariqa uchinchi bosqich yakunlanadi. (**2-ilova**).

**4-bosqich.** Bu bosqichda har bir talaba alohida o‘tiradi. Talabalarga “**5 daqiqalik annotatsiya**” yozish topshirig‘i beriladi. Annotatsiya mavzu doirasida bo‘lib 50 so‘zdan oshishi kerak emas. (**3-ilova**).

### **1-ilova**

#### **“Venn diagrammasi”**

#### **Mavzu: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI.**



## **Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi viloyatlarining umumiy holati:**

1. Barcha viloyatlarda aholi jon boshiga sanoat maxsuloti ishlab chiqarish o‘rta darajadan ikki barobar past edi.

2.Odamlarning ijtimoiy ta’minoti va ularni himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi barcha viloyatlarda mavjud. Qishloq aholisining 5 foizi kanalizatsiya va vodoprovod bilan, salkam 50 foizi –ichimlik suvi bilan,17 foizi tabiiy gaz bilan ta’minlanganini normal ahvol deb hisoblash mumkin emas.

### **2-ilo va.**

#### **Jadval: “Tarixga baho”.**

<b>Sharof Rashidov</b>	<b>Islom Karimov</b>
<p>Adib, yirik davlat arbobi Sharof Rashidov O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining raisi ,1959-1983 yillarda O‘zbekiston Kompartiyasining Birinchi kotibi bo‘lib ishladi. Toki umrining oxirigacha Respublika partiya tashkilotiga rahbarlik qildi. Shuningdek, ttifoq Partiya Markaziy qo‘mitasi Siyosiy Byurosi a’zoligiga nomzod ham edi.</p> <p>Sharof Rashidov Sho‘ro hokimiysi davrining barcha davlat arboblari singari vafotidan keyin qoralandi. Hayoti va ijodini o‘rganish taqiqlandi. Mustaqillik sharofati bilan kamtarin adib va davlat arbobining nomi qayta tiklandi.</p> <p>Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 27- martdagи “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori chiqdi. Bu sanaga bag‘ishlab xotira kechalari, ma’naviy ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.</p>	<p>Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyoti yo‘lining ijodkori, Bosh qomusimiz muallifi, bozor munosabatlariga o‘tishda iqtisodiy islohotlarning yangi modelini ishlab chiqqan va u dunyoda O‘zbek modeli-Karimov modeli deb e’tirof etilishiga erishgan, milliy armiyamiz-mustaqilligimizning tinch va osoyishta hayotimizning kafolati ekanligini bilgan holda Qurolli kuchlarda islohotlarni amalga oshirgan, avlod-ajdodlarimiz ma’naviy merosi, milliy qadriyatlarimizga hurmat va e’xtiromda bo‘lishga, urf-odatlarimiz, diniy qadriyatlarimizni rivojlantirish va davlatning ustuvor yo‘nalishiga aylantirishga erisha olgan inson.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida, Islom Karimov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan Toshkent davlat texnika universitetiga, Asaka shahridagi avtomobil zavodiga, Farg‘ona shahridagi san’at saroyiga, Toshkent xalqaro aeroportiga Islom Karimovning nomi berildi.</p>

## “5 daqiqalik annotatsiya”

**Izoh:** Annotatsiyada mavzuning eng muhim jihatlari keltirilishi kerak: mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol, mustaqillikning e’lon qilinishi, I.A.Karimovning mamlakat mustaqilligi va taraqqiyoti yo‘lidagi fidoyiligi, O‘zbekiston xalqining manfaatlari va orzu istaklaridan kelib chiqib fuqorolik jamiyati va demokratik prinsiplarni o‘zida mujassam etgan siyosiy tizimning shakllantirilganligi.

Namuna: O‘zbekistonning mustaqillik tomon yo‘l tutishi sovetlar imperiyasida boshlangan inqiroz va qarama-qarshiliklarning avj olishi vaqtidan boshlangan bo‘lib, istiqlolning tashabbuskori va tashkilotchisi Islom Karimovdir.

Islom Karimovning mustaqillik arafasida markazga har doim ham xush kelmaydigan, ammo respublika va uning aholisi manfaatlariga javob beradigan ichki hamda tashqi siyosati, amalga oshirgan chora-tadbirlari, rahbarlik irodasi va siyosatchi sifatidagi aql-idroki tarixiy burilish pallasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi arafasida hukm surgan chuqur inqiroz holati, o‘sha davrning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy hayoti istiqlolning dastlabki oylari tarixini o‘rganishda ham O‘zbekistonning yangi tarixini yaratishda 1989-1991 yillar davomida respublikada kechgan tarixiy jarayonlarining bevosita guvohi bo‘lgan, ularning markazida turgan inson O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

### **3-SEMINAR. O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LI (2 SOAT).**

#### **REJA**

1. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi.
2. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish strategiyasining ishlab chiqilishi.
3. Iqtisodiy rivojlanishning “o‘zbek modeli”, uning mohiyati.
4. O‘zbekistonda mulkdor sinflarning shakllanishi.

#### **Seminar mashg‘ulotining loyihasi.**

Mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari: O‘zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish, ma’naviy yuksalish va madaniy taraqqiyoti yo‘lidagi tub o‘zgarishlar to‘g‘risida bilimlar tizimini shakllantirish, iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirish va isloh etishda taraqqiyotning “O‘zbek modeli”ning o‘rni va ahamiyati haqida tushuncha berish, ma’naviy kamolot borasidagi sa’y harakatlarni yoritish, mustaqillik yillarida madaniy hayotning yuksalishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish.

Mashg‘ulot usullari: “Savollar xaritasi”, “Bog‘lovchi ko‘prik” jadvali va “Xulosa”.

Mashg‘ulot instrumenti: A4 formatdagi qog‘ozda yozilgan savollar, rangli qog‘oz, mantiqiy savollar yozilgan xarita, “Bog‘lovchi ko‘prik” jadvali va “Xulosa” yozilgan A4 formatdagi qog‘oz .

Mashg‘ulotdan kutilayotgan natija: Mustaqillikning xalqimiz uchun olamshumul yutuqligi, mamlakatimizda shakllantirilgan o‘ziga xos va o‘ziga mos milliy taraqqiyot yo‘lining mohiyatini anglab yetadilar.

#### **Seminar mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:**

1-bosqich. Talabalar “Savollar xaritasi”da belgilangandek 4 ta guruhga ajratiladi

2-bosqich. “Savollar xaritasi” o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha tuziladi va unda qolib ketgan so‘zlarni mantiqan o‘ylab joylashtirish kerak bo‘ladi. 3 yoki 4 ta talabalardan guruhar tuziladi. Shunday qilib qisqa vaqt ichida ham guruh tuziladi va ham mavzu o‘zlashtiriladi.

3-bosqich. Guruhlarga “Bog‘lovchi ko‘prik” jadvali tarqatiladi. Talabalardan jadvalni ma’lumotlar bilan to‘ldirish talab etiladi. Tarixiy jarayonlarni tahlil qilishadi va javoblarni topishadi. Mashg‘ulotni bajarish uchun ma’lum vaqt talab qilinadi. So‘ngra har bir guruh o‘z fikr- mulohazalarini bayon qiladilar. Shu tariqa

bilimlar mustahkamlanadi. Taqdimot paytida savollar berish mumkin, debat uyuşdırish mumkin.

#### **4-bosqich. Mavzu xulosasini “Xulosa”jadvali orqali qilish mumkin.**

##### **1-gurux xaritasi.**

O‘zbekistonning boy imkoniyatlari, geosiyosiy sharoitidan foydalanib, o‘zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo‘lib qoldi. O‘zbekiston tanlagan islohot yo‘li ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o‘zining hayotiyligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- 1) iqtisod siyosatdan ustun turib, mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog‘i kerak;
- 2) davlat bosh islohotchi o‘rnida bo‘lib, u islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;
- 3) bozor munosabatlariga o‘tish ..... ustuvorlikni talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart;
- 4) bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtida aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o‘tkazish;
- 5) ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo‘nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri .....evolutsion yo‘l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

##### **2-guruhi xaritasi.**

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish tamoyillari asosida g‘oyat ma’suliyatli va murakkab vazifa-iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang‘ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan .....boshqa holatiga o‘tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko‘ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o‘tish davridagi bir-biriga bog‘liq, ikki vazifani bir vaqtida hal qilishga to‘g‘ri keldi: ma’muriy buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich

jarayonida iqtisodiy .....g‘oyat muhim yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

- o‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligida mulkchilikni.....vujudga keltirish;
- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

### **3-guruh xaritasi.**

Dastlabki vaqtning o‘zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo‘yicha Prezident huzurida maxsus Idoralararo ..... tuzildi.

Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma’muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, ..... keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

### **4-guruh xaritasi.**

Mulkni xususiylashtirish va ko‘p ukladli iqtisodni shakllantirish O‘zbekistonda o‘ziga xos yo‘l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdagi maqsad: 1. Davlat monopoliyasini tugatib ma’muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish; 2. Xususiy mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirish; 3. Xorijiy sarmoyadorlarga keng yo‘l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining .....yuksaltirishdan iborat.

1992-1993 yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida “Kichik xususiylashtirish” amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash ..... mulk shaklini o‘zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy mulk etib berildi.

Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada qishloq xo‘jaligida 770 kolxozi va davlat xo‘jaliklari xususiylashtirildi, jamoa va ijara xo‘jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiyinchliklarni bartaraf etishga to‘g‘ri keldi. I.A.Karimov ta’kidlaganidek, agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to‘siqlari qishloqda islohotning.....xalaqit berardi. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarish

jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa.....sinfining shakllana boshlagani, xususiy lashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o‘zgarishi bo‘ldi. Mustaqillik yillari yuz bergan tub o‘zgarishlardan biri mamlakatda ikki yo‘l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar vaxsusiy ..... keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag‘larini omonat kassalari yoki banklariga qo‘yish, qimmatbaho qog‘ozlarga aylantirish yo‘li bilan. Iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lgan mulkdor “o‘z boyligini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo‘ladi”-deydi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Davlat mulkini xususiy lashtirishning ikkinchi bosqichi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994-yil 21-yanvardagi “Iqtisodiy ..... yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyat qurish, korxonalar aksiyasining chiqarish, auksion (kim oshdi) ..... orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog‘ozlarni chiqarish va xususiy lashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

Aloqa, transport, geologiya qidiruv yoqilg‘i-energetika komplekslari xususiy lashtirilmadi. Ayrim sohalarda-kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog‘-kon sanoatida 51% aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo‘ldi.

1994-yil oxirigacha 54.000 korxona.....shaklini o‘zgartirdi. Xususan, 34%-xususiy, 48% aksiyadorlik, 16%-jamoa, 1% ijara xo‘jaligiga aylandi. Iqtisodiy islohotlarning borishi, uning to‘rt yil davomidagi muvaffaqiyatlari va muammolariga respublika Oliy majlisining XV sessiyasi (1995-yil dekabrda) va Vazirlar mahkamasining majlisida (1996-yil fevral), Birinchi Prezident I.A. Karimovning nutqlarida keng yoritildi.

O‘qituvchiga uslubiy tavsiyalar: “Bog‘lovchi ko‘prik” – bu shunday usulki bunda talabada murakkab jarayonlarning sabab va oqibatlarini taxlil qila olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. “Bog‘lovchi ko‘prik” mavzu doirasidan kelib chiqib tarixiy manbalar asosida tayyorlanadi. Bu esa talabalarni tarixiy manbalar bilan ishlashga qiziqtiradi. Tavsiya qilinayotgan jadval mavzuning bir qismi bo‘lib, Birinchi Prezident asarlari asosida tayyorlangan.

**“Bog‘lovchi ko‘prik” jadvali ilovasi.**

**1-guruuh uchun jadval. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligidagi islohotlar.**

O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida (I.A.Karimov)	Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish-eng oliv saodatdir (I.A.Karimov)	Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (Shavkat Mirziyoyev)
Qishloq xo‘jaligi sohasi, uning tarmoqlarini yangi ish uslubiga o‘tkazayotgan islohotning asosiy maqsadi-avvalambor, dehqonlarimizning ishdan manfaatdorligini tubdan o‘zgartirishdir, o‘z mehnatining hosili, pirovard natijasini bиринчи navbatda о‘зларига qaytarishdir, ularning turmush darajasini, saviyasini ko‘tarishdir. Demak bizning asosiy vazifamiz dehqonlarning o‘z mehnati samarasidan to‘la-to‘kis foydalana olishga bo‘lgan ishonchini kuchaytirishimiz kerak (311-bet)	Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlash, moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yanada keng yo‘l ochib berish, bu borada yangi imtiyoz va imkoniyatlarni tug‘dirish, qisqacha aytganda, qishloqda paydo bo‘layotgan mulkiy munosabatlarni, yangi o‘rtasinf vakillari-mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning manfaatlarini himoyalash bugungi kunda eng katta ahamiyatga ega.(179-bet)	Birinchi-ekin maydonlari va ekinlar tarkibini optimallashtirish, ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish va hosildorlikni oshirish, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni ko‘paytirish; Ikkinci-fermer xo‘jaliklarning moliyaviy-iqtisodiy holatini mustahkamlash.Oxirgi 10 yil mobaynida mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘imoylash materiallari va urug‘lik narxining o‘sishi bilan paxta xomashyosi va g‘allani xarid qilish narxlari o‘sishi o‘rtasida keskin farq borligi kuzatilmoque.(278-bet).

**2 - guruh uchun jadval. O'zbekiston mustaqil demokratik jamiyat  
qurish yo'lida**

<b>O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida (I.A.Karimov)</b>	<b>Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir (I.A.Karimov)</b>	<b>Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (Shavkat Mirziyoyev)</b>
<p>Oliy Kengashimizning o'z faoliyatining birinchi kunlaridanoq qabul qilgan barcha qonunlari, O'zbekiston SSR Prezidentining farmonlari va hukumatimiz qarorlari ana shu maqsadga, respublikaning iqtisodiy va siyosiy jixatdan mustaqil rivojlanish yo'liga qaratilgan. Mana shu Oliy Kengash tarkibi qabul qilgan Respublikaning Davlat mustaqilligi deklaratsiyasi buning yaqqol dalilidir. (396-bet).</p>	<p>Mamlakatimiz parlamentiga bo'lib o'tgan saylovlari yurtimizda izchillik bilan olib borilayotgan, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish, bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilgan, Konstitutsiyamizda eng oliv qadriyat sifatida muxrlab qo'yilgan inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar jamiyatimizda keng qo'llab — quvvatlanayotganini ko'rsatadi. (100-bet).</p>	<p>Mamlakatimizda demokratik isloxtlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari—mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rinnegallaydi, deb ishonamiz. (141-bet)</p>

**3-guruh uchun jadval. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li.  
O‘zbek modeli”.**

<b>O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida (I.A.Karimov)</b>	<b>Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish-eng oliv saodatdir (I.A.Karimov)</b>	<b>Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (Shavkat Mirziyoyev)</b>
<p>O‘zini mustaqil deb bilgan davlat o‘z hududida bo‘lgan barcha yer osti-yu, yer usti boyliklariga, ishlab chiqaruvchi kuchlarga hech so‘zsiz faqat o‘zi egalik qilmog‘i kerak.</p> <p>Shu bilan birga, O‘zbekiston o‘z boyliklaridan va ishlab chiqariladigan mahsulotdan foydalanish masalasida ham erkin bo‘lishi zarur.(279-bet).</p>	<p>Mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirilgan ishlarimizni tahlil qilar ekanmiz, biz tanlagan model, chuqur o‘ylangan va izchil amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning ustivor yo‘nalishlari yurtimizdagи siyosiy tizim, fuqarolik jamiyatni, milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishi, aholining hayot darajasi izchil oshib borishi uchun mustahkam va ishonchli poydevor yaratdi, deb ta’kidlashga barcha asoslарimiz bor. (129-bet).</p>	<p>Biz muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abduganiyevich Karimov boshlab bergan keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo‘lini og‘ishmasdan, qat’iy va izchil davom ettiramiz.</p> <p>Bu yo‘l-erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqorolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir. (137-bet).</p>

#### 4-guruh uchun jadval. O'zbekistonda mulkdorlar sinfining shakllanishi

<b>O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida (I.A.Karimov)</b>	<b>Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliv saodatdir (I.A.Karimov)</b>	<b>Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz (Shavkat Mirziyoyev</b>
Biz o'zimizning mulkchilik to'g'risidagi qonunimizda O'zbekistonda mulkchilikning barcha ko'rinishlari teng huquqlidir, deb e'lon qildik. Hozirning o'zidayoq yangicha sharoitda faoliyat yuritayotgan mustaqil korxonalar bor. Vazirlıklarni konsernlarga aylantirish tadorigini ko'rayapmiz. Mulkchilikning boshqa, ya'ni xususiy, aksiyadorlik shakllari ham mustasno etilmaydi.(288-bet).	Istiqlol yillarda mulkchilikning tuzilishida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ko'pukladli iqtisodiyot amalda shakllanib, uning tarkibida xususiy mulk ustivor rivojlandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotida nafaqat hal qiluvchi o'rin egalladi, ayni vaqtda bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, odamlarning daromadlari va farovonligi oshib borishining asosiy manbaiga, aholi bandligi o'sishining eng muhim omiliga aylandi.(130-bet).	Oldimizda turgan yana bir vazifa-xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirishga xalaqt berayotgan barcha to'siq va cheklovlanri bartaraf etishdan iborat. Biroq, tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan qator choralar ko'rlishiga qaramasdan, doimiy tekshirishlar, moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlar oqibatida tadbirkorlar o'z ishini vaqtincha to'xtatishga, ayrim hollarda esa umuman tugatishga majbur bo'lmoqda.(68-bet).

## “Xulosa” jadvali

<b>xa</b>	<b>Savollar</b>	<b>yo‘q</b>
+	Ziddiyatli va murakkab bir paytda O‘zbekiston uchun o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘lini anglash,,yangi jamiyat barpo qilish uchun o‘z andozasini ishlab chiqish g‘oyat dolzarb va axamiyatli edi	
+	O‘zbekiston markazsiz yashay oladimi?	
	O‘zbekiston Mustaqilligi to‘g‘risida qonun qabul qilindimi?	
	O‘zbekiston davlat mustaqilligi markaz tomondan maqullandimi	+
	Aholining ijtimoiy himoyalanishiga e’tibor berildimi?	
	Mustaqillik yillarda davlat hayotining yangi demokratik huquqiy asoslari yaratildimi?	
	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1990 yil 8 dekabrda qabul qilindimi?	+
	Umumxalq Prezident saylovlari O‘zbekistonda oldin am bo‘lganmi?	+

## **4- SEMINAR. O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR. (4 SOAT)**

### **Reja**

1. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi.
2. O‘zbekistonda ko‘p partiyaviylik tiziminining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlari. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.
3. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni.
4. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.

### **Seminar mashg‘ulotining loyihasi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:** Dars jarayonida talaba O‘zbekistonning mustaqillik yillarda bosib o‘tgan yo‘li va bosqichlari, qabul

qilingan tarixiy hujjatlarning qadri qiymati, mustaqillik davridagi har bir jarayonni o‘tgan davr bilan qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmasi,mantiqiy fikrlash, mustaqil o‘z fikrlarini baholay olishni bildirish,o‘z o‘ziga baho berish va boshqalarning ham bilimini baholay olishni, fikr mulohazalardan eng kerakligini ajrata olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari mashg‘ulotni maqsadi talabalarning mavzuni qanchalik o‘zlashtirganlarini, tarixiy manbalarni ustida qanchalik ishlay olishlarini, mustaqil tarzda manbalardan izlagan javoblarini topa olishlari,olgan bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan.

### **Mashg‘ulot usullari: “Bumerang”, “Savollar xazinasi” va ”Savollar anketasi (Feedback)”.**

**Mashg‘ulot instrumenti:** A3 formatdagi qog‘oz “Bumerang”, ”Savollar anketasi(Feedback)” o‘tkazish uchun, talabalar sonidan kelib chiqib A3 formatdagi qog‘ozlar.

**Mashg‘ulotdan kutilayotgan natija:** Milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asosi yaratilganligi, O‘zbekiston Birinchi Prezidenti asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida mushohada yuritish orqali talabalarda milliy iftixor tuyg‘usi shakllantiriladi.

**Seminar mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:** Seminar mashg‘uloti “Bumerang” va “Savollar xazinasi” interfaol usullari orqali o‘tkaziladi. Mashg‘ulot 5ta bosqichdan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi talabalarni besh guruhga bo‘lib, bu guruhlarga sonlar yozilgan varaqqlarni tarqatib beradi.

**1-bosqich** o‘tilayotgan mavzu doirasida oldindan tayyorlangan “**Qisqacha ma’lumotnoma**” har bir guruhga tarqatib berishdan boshlanadi. Ma’lumotnoma har bir guruhga bir xil hajmda tayyorlangan holda tarqatilishi kerak. “**Qisqacha ma’lumotnomani**”o‘rganish uchun guruhlarga bir xil vaqt taklif etiladi. Belgilangan vaqt ichida har bir guruh a’zosi diqqat bilan ma’lumotnomadagi matnni o‘qib chiqib o‘zlashtirishi lozim. Namuna sifatida quyida qisqacha ma’lumotnoma tavsiya etiladi.

1. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. (1-ilova).

2. O‘zbekistonda ko‘p partiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.(2-ilova).

2-bosqichda har bir guruh a’zosi boshqa guruh bilan qo‘shilishi kerak. Ya’ni har bir guruhda boshqa guruhdan a’zo faoliyat olib borishi kerak. Shu tariqa 5ta guruhdan talabalar yig‘ilishib, beshta “**Qisqacha ma’lumotnoma**” haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bu bosqichda guruhlardagi har bir talabandan

o‘zlashtirgan ma’lumotlari haqida gapirib berishlari va o‘rtoqlaridan ko‘proq ma’lumotlarni o‘zlashtirishlari talab etiladi. Ushbu bosqich yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga va o‘zlashtirgan ma’lumotlarni boshqalar bilan o‘rtoqlashishga imkon beradi. Shu tariqa bu bosqich yakunlanadi va talabalar o‘z o‘rnilariga qaytishadi.

3. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni.(3-ilova).

3-bosqichda talabalar o‘z guruhlariga ma’lumotlarga ega bo‘lgan holda qaytishadi.Ya’ni yangidan-yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirgan holda guruhlarga qaytishadi. Ushbu bosqichda guruh a’zolariga o‘zlashtirgan ma’lumotlarini bir-birlari bilan bo‘lishishadi. Yangilarini bilib olishadi, bilganlarini mustahkamlashadi, bilimlarini aniqlashtirishadi. Shu tarzda ushbu bosqich yakunlanadi.

4-boqichda talabalarga alohida-alohida o‘tirishga taklif qilinadi. Ularga o‘tilayotgan mavzu doirasida o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan “Savollar xazinasi” ichidan savollar tarqatiladi (Savollarni eshittirib o‘qish mumkin).Talaba savollarga qisqa vaqt ichida unga ajratilgan vaqt doirasida tez va lo‘nda javob berishi kerak. Shundan so‘ng o‘qituvchi to‘g‘ri javoblarni o‘qiydi va talabalardan javbolarida uchragan xatoliklarini to‘g‘rilashni talab qiladi.

5-bosqichda seminar mashg‘uloti jarayonida talabalar to‘plagan ballari ko‘rib chiqiladi, yo‘l qo‘yilgan xatolar o‘rganiladi va ularning sabablari taxlil qilinadi. Shu tariqa, talabalar yangi bilimlarni o‘zlashtirishadi, mustahkamlashadi, bilmilarni egallashda nimalarga e’tibor berishni o‘rganishadi, o‘rganganlaridan xulosalar qilish ko‘nikmasini o‘zlashtirishadi.

### **“Qisqacha ma’lumotnomasi”**

#### **1-ilova.**

“Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi”

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik orzu-umidlari ifodasi bo‘lgan mustaqillikning asosiy xususiyati milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ta’minlaydigan huquqiy-demokratik davlat qurish edi.

Mustaqillik yillari milliy davlatchilik asoslarini qurish yillari bo‘ldi. O‘tgan yillar ko‘hna tariximizni teran his qilish, hozirgi jahon jarayonida o‘z o‘rnimizni egallash davri bo‘ldi. Bu davrda biz o‘zligimizni anglab, tarixiy yo‘limizni uzilkesil tanlab oldik.

Mustaqil O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy an’analarga, dunyo tajribalariga, o‘lkaning o‘ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni

siyosiy jihatdan tubdan isloh qilish yo‘llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita bosh vazifa:

1. Eski ma’muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;

2. Yangi davlatchilikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini hal qilishdan iboratdir.

Jamiyatda qonuniylikning g‘alaba qilishi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va boshqa huquqlari himoyasi uchun hokimiyatlarning bo‘linish prinsipi haqli ravishda amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida hokimiyatning bo‘linishi tamoyili konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning yo‘llarini ko‘rsatib berar ekan, Birinchi Prezident I.A.Karimov eng avvalo bu vazifa hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlashga bog‘liqligini uqtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsianing V-bo‘lim XVIII bobida va 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan. Bu qonunlarga ko‘ra, Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

1997-yil aprelda Oliy Majlis tarkibida Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) tashkil qilinganligi haqida qaror qabul qilindi.

Ombudsman jahondagi 85 dan ortiq mamlakatda bo‘lib, uning huquqiy holatini aniq ravshan belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qonun Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi huquqiy hujjatdir.

Ushbu qonunda:

Ombudsman fuqarolarning ariza va murojaatlarini ko‘rib chiqishda, zarur axborotni talab qilib olishda mansabdor shaxslar va davlat organlari bilan hamkorlik qilmoqda.

Qonun qabul qilinganga qadar ham Inson huquqlari bo‘yicha vakil mamlakat Konstitutsiyasi doirasida faoliyat ko‘rsatib keldi. Jumladan, bиргина 1996-yilda Inson huquqlari bo‘yicha vakil hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha komissiya a’zolari 700 dan ortiq murojaatni ko‘rib chiqdi. Ana shunday arizalarning tegishli qismidagi dalillar o‘z tasdig‘ini topgan va zarur choralar ko‘rilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha vakil BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasining Jenevada bo‘lib o‘tgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va so‘zga chiqdi. Chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari bo‘yicha vakil

BMT seminarida, BMTning Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida so‘zga chiqdi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

Inson huquqlari bo‘yicha vakil faoliyatini tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda huquqiy, insonparvarlik, demokratik va fuqarolik jamiyat qurilishi uchun mustahkam poydevor qo‘yildi.

Oliy Majlis “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”, “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”, “Siyosiy partiylar to‘g‘risida” qonunlarni, Mehnat kodeksi (1995), “Fuqarolik Kodeksi”ning (1996) (birinchi va ikkinchi qismlari) kabi ko‘plab qonunlar va qarorlar qabul qildi.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisiga saylovlар bo‘lib, saylangan deputatlardan O‘zbekiston Parlamentining yangi tarkibi shakllandi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi ma’ruzasidan kelib chiqadigan “2000-2002 yillarga mo‘ljallangan qonunchilik va nazorat faoliyatining ustuvorlik jihatlari to‘g‘risida”gi hujjatni tasdiqladi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida (2000-yil 14-dekabr) Oliy Majlisning O‘zbekiston xalqiga Murojaatida: “Yangi asr mamlakat uchun yangilanish va taraqqiyot davriga aylanishiga ishonamiz. Shu boisdan ham mustaqil yurtimizning yorug‘ istiqboli uchun barchamiz hamjihat bo‘lib kurashaylik. Maqsadimiz -Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi va kelajak avlodning baxt-saodatidir”-deyilgan.

Mustaqillikning tayanch nuqtalaridan biri prezidentlik boshqaruvingin joriy qilinishi bo‘ldi. Bu bilan davlat boshqaruving yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladiki, Prezidentlik boshqaruvi shu tizimning o‘zagidir.

O‘zbekiston mustaqillik tomon yo‘l tutar ekan, birinchi kunlaridan boshlab, uning boshida Islom Abdug‘aniyevich Karimov turdi. Asrlarga teng shu qisqa vaqtida erishilgan yutuqlar: mamlakatda o‘rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatda o‘rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o‘rnining ortib borishini butun xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bog‘laydilar.

Mamlakatimizda barcha sohani qamrab olgan keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 26-martda Birinchi Prezident I. Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o‘tkazishga qaror qildi. 2000 yil 11-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi 2000-yil 9-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari tasdiqlandi. Shu kuni Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunning 35-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug‘aniyevich Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Amaldagi Konstitutsiyada Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshlig‘i qilib belgilanishi ijro etuvchi hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan tadbir deb aytish mumkin. Mamlakatimizning ijro etuvchi hokimiyati tarkibi Prezident tomonidan tayinlanib, Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekistonda prezidentlik instituti o‘rnatalgan dastlabki davrda Vazirlar kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Uning 1990-yil 30-martida Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi, ya’ni Rais, Bosh vazir, uning ikki birinchi o‘rinbosari, to‘rt o‘rinbosar, 19 vazir, 14 davlat qo‘mitasi raisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari faoliyati takomillashtirilib borildi. 1995-yil 5-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning II sessiyasi bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi to‘g‘risidagi Prezidentning Farmonini tasdiqlash masalasi ko‘rildi va sessiyada Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi tasdiqlandi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi ikkinchi yig‘ilishida (2000-y. 11-fevral) mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi tasdiqlandi.

Boshqaruv tizimining boshqa bo‘g‘inlari ham bozor iqtisodining O‘zbekistonga xos yo‘liga moslashtirildi.

2007-yil 23-dekabrda muqobililik asosida otgan saylov natijalariga kora, I.A.Karimov 7 yil muddatga O‘zbekiston Prezidenti etib saylandi. 2015-yil 29-mart kuni bolib otgan navbatdagi Prezident saylovida ham I.A.Karimov 5 yil muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1991-yil dekabrdan to 2016 yilning sentyabriga qadar respublikamizda prezidentlik vazifasi va vakolatlarini sidqidildan, oz kuchi va g‘ayratini ayamasdan bajarib keldi. [2016 –yil 8-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qoshma majlisi parlament palatalarining qoshma qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarish vaqtincha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklandi.](#)

## **2-ilo va**

**“O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.”**

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ko‘ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi davlat hokimiyati oliy va mahalliy organlarining takomillashishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Istiqlol yillari vujudga kelgan siyosiy partiyalar o‘z faoliyatida o‘zbek xalqining eng yaxshi demokratik an’analariga, adolat, ezgulik, teng lik va inson erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar hamda g’oyalarga, axloqiy va odamiylik qoidalariga suyanadi. Ular o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi 1996-yil 26-dekabr qonuniga va boshqa qonun hujjalariiga muvofiq, shuningdek o‘z dasturlariga asosan amalga oshiradilar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi aniq va ravshan belgilab berilgan.

Ko‘ppartiyaviylik demokratik taraqqiyot yo‘lida erishgan muhim yutuqlardan biridir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda beshta siyosiy partiya faoliyat olib bormoqda:

1. Xalq demokratik partiyasi (O‘zbekiston XDP)- siyosiy partiya sifatida mamlakatda birinchilardan bo‘lib, 1991-yil 1-noyabrda tashkil topdi. Partiya o‘zining ommaviy axborot vositalariga ega.Uning markaziy nashrlari “O‘zbekiston ovozi” gazetasi.

2. O‘zbekiston “Adolat” sosial-demokratik partiyasi (SDP) 1995-yili 18-fevralda tashkil topdi va 30 ming a’zoga ega bo‘ldi. Partiyaning rasmiy nashri “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasidir.

3. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (O‘z MTDP )-1995-yil 3-iyunda tashkil topdi. Partiyaning matbuot nashri- “Milliy tiklanish” ijtimoiy-siyosiy gazetasи.

4. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘z LiDep) 2003- yil 15-noyabrda tashkil topdi. Uning markaziy nashri –“XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasidir.

5. O‘zbekiston ekologik partiyasi. 2019-yilning 8-yanvar kuni O‘zbekiston ekologik partiyasining ta’sis se’ezdi bo‘lib o‘tdi. Ta’sis se’ezdida O‘zbekiston ekologik partiyasini ta’sis etish va O‘zbekiston ekologik partiyasi Ustavi va Dasturi loyixalari, O‘zbekiston ekologik partiyasi Markaziy Kengashi a’zolarini saylash, O‘zbekiston ekologik partiyasi Markaziy nazorat taftish komissiyasi to‘g‘risidagi Nizomi, O‘zbekiston ekologik partiyasi Matbuot organini ta’sis etish, O‘zbekiston ekologik partiyasining vakolatli vakillarini saylash kabi masalalarni ko‘rib chiqdi. Bugungi kunda dunyoda 100 ga yaqin davlatlarda ekologik partiyalar faoliyat olib boradi. Ko‘plab ekologik partiyalar mamlakatlar siyosiy maydonining teng huquqli a’zosi sifatida vakillik organlariga o‘rinlar egallash vazifalarini qo‘yib o‘rin olgach, parlamentda o‘z oldilaridagi mushtarak maqsadlarini davlat siyosati darajasida ilgari suradilar.

Shu nuqtayi nazardan yondashganda harakat dasturlarida o‘zaro yaqinlik bo‘lganligi sababli hamda demokratik jarayonlarining talablarini hisobga olgan holda “Vatan taraqqiyoti” partiyasi bilan FMDPning o‘zaro birlashishi ham shu ruhni o‘zida aks ettiradi. “Vatan taraqqiyoti” partiyasi 1992-yil 24-mayda tuzilgan; VTP 2000-yil 14-aprelda Fidokorlar Milliy Demokratik Partiyasi bilan birlashib, FMDP nomini oldi) va O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi (1998-yil 28 dekabrda tuzilgan; 2008 -yil 20-iyunda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi bilan birlashgan) ham faoliyat ko‘rsatadi.

Sobiq Ittifoqdan qolgan qonunlarni o‘zgartirish, mamlakat hayoti uchun zarur o‘zgartirishlarni amalga oshirish, demokratik tamoyillar asosida Oliy Majlisni shakllantirish uchun 1994-yil 25-dekabrga saylovlar belgilandi.

1993-yilning 28-dekabrida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi I-chaqiriq Oliy Majlisiga saylov respublikamiz siyosiy hayotida ulkan yutuq bo‘lib, bunda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis - Yangi Parlament demokratik va ko‘ppartiyaviylik asosida tuzildi.

Oliy Majlis faoliyatini erkinlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi II-chaqiriq Oliy Majlisining VII-sessiyasida ikki palatali parlament tuzish to‘g‘risida umumxalq referendumi o‘tkazishga qaror qilindi. Shu asosda 2002-yil 27-yanvarda o‘tgan umumxalq referendumida qatnashgan fuqarolarning 93,65 foizi parlamentni ikki palatadan tuzilishini qo‘llab-quvvatladi.

Davlat hokimiyati tizimiga kiruvchi hokimiyatlardan biri sud hokimiyatidir. Sud hokimiyati boshqa hokimiyatlar kabi xalq manfaatlarini ko‘zlab va

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qabul qilingan qonunlar asosida o‘z vakolatlarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi quyidagicha: besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar sudlari, viloyat xo‘jalik sudlari, harbiy sudlarlardan iborat.

2017-2018 yillarda sud-huquq tizimiga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Mazkur sudlarning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunida bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi-fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sudlov sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Shu bilan birga og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan bir guruh shaxslarga; oldin sudlanmaganlarga, biron bir joyda ishlamasdan, mo‘may pul topish yo‘liga o‘tib ketganlarga nisbatan belgilangan jazolarni qonun kuchidan to‘la foydalanilmagan ishlarning jazo qismini yengil deb bekor qilib, og‘irroq jazolashga o‘z ko‘rsatmasini beradi.

Respublika Oliy sudi 1994-yilda 149 kishiga nisbatan quyi sudlar tomonidan tayinlangan jazolar og‘ir deb topilganligi sababli hukmlar o‘zgartirilib, jazolar qisqartirilgan bo‘lsa, 1995-yilda 247 kishiga nisbatan jazolar og‘ir deb topilib, hukmlar o‘zgartirildi, 25 shaxsga nisbatan jinoiy ishlar sudlanganlarning harakatida jinoyat tarkibi yo‘qligi sababli harakatdan to‘xtatildi.

Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganligi uchun 1994-yilda quyi sudlar tomonidan 89 kishiga nisbatan belgilangan jazolar yengil deb topilib, hukmlar bekor qilingan bo‘lsa, 1995-yilda 70 kishiga nisbatan quyi sudlar belgilangan jazolar yengil deb, hukmlar bekor qilindi va yangidan sud majlisida ko‘rish uchun yuborildi.

O‘zbekistonda sud tizimini isloq qilish, sud hokimiyatini shakllantirishda ham birmuncha ishlar qilindi. Sud tuzilishi va sudlov ishlarini yurgizishga oid barcha demokratik konstitutsiyaviy tamoyillar yanada rivojlantirildi. 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti - harakatlar va qarorlar ustida sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi qonun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratdi.

Respublika xo‘jalik sudlari istiqlolning so‘nggi yillarida o‘zlarining faoliyatini aniq iqtisodiy vazifalar bilan bog‘lab olib bormoqda. Xususan xo‘jalik sudlari 1995-2000 yillarda jami 128.000 nizolarni ko‘rib chiqqan va 271,4 mlrd. so‘m mablag‘ni da’vogarlarga undirib bergen. Keyingi 6 yil mobaynida xo‘jalik

sudlarining qarorlari asosida davlat boji va jarimalar hisobidan respublika byudjetiga 4,3 mld. so‘m mablag‘ undirilgan.

2000-yilning 1-yarmida mazkur tizimda 17.000 dan ziyod ish ko‘rib chiqildi. Natijada, 53,4 mld. so‘mlik hajmdagi zarar da’vogarlar foydasiga undirib berildi. Mamlakat byudjetiga 550 mln. so‘m tushum tushirildi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq VI sessiyasida (2001-yil 29-avgust) “Adolat qonun ustuvorligida” nomli ma’ruzasida sog‘lom jamiyat uchun jinoyatchini jazolashdan ko‘ra, jinoyatning oldini olish muhim ekanligini uqtirib o‘tdi. Ma’ruzada Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilayotgan o‘zgarishlar, masalan, 110 turdag‘i uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarning ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga o‘tkazish, 12 turdag‘i jinoyatni og‘ir toifadan unchaog‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga, 7 turini esa o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasidan og‘ir jinoyatlar toifasiga o‘tkazish haqidagi takliflar bayon qilindi. Shuningdek, iqtisodiy sohada jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan iqtisodiy ta’sir choralarini qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi, butun jahonda muhokama etilayotgan muhim masalalardan biri-o‘lim jazosini jinoiy jazo chorasi sifatida qo‘llayotganligi bilan bog‘liq muammolar, qonunchiligidan jinoiy jazo turi sifatida mol-mulkni musodara qilish jazosini qo‘llash tartibini qayta ko‘rib chiqish, voyaga yetmaganlar, ayollar va keksalarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo tizimini qayta ko‘rib chiqish, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligidan erkinlashtirish va demokratlashtirishda ishlarni ko‘rib chiqish tartibini soddalashtirish, jinoiy ishlarni tergov qilish va sudda ko‘rish muddatlarini qisqartirish kabi dolzarb vazifalar va takliflar mohiyati chuqur bayon qilib berildi. Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilayotgan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar jinoiy ishlarga taalluqli qonunlarni erkinlashtirish va demokratlashtirish sari tashlangan muhim hamda mas’uliyatli qadam ekanligi ta’kidlab o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VI sessiyasidagi ma’ruzasi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan qarorining 2-bandida shunday deyiladi:

“Ma’ruzaning jinoiy jazolarni liberallashtirish, qonun ustuvorligini ta’minalash, fuqarolar huquq va erkinliklarini, jamiyat hamda davlat manfaatlarini himoya qilish sari qaratilgan yo‘lni hayotga tatbiq etishga doir dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin.”

Insoniyat tarixida yangi davr-Inson huquqlari davri boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1995-2005 yillarni kurramizda “Inson huquqlari o‘n yilligi” deb e’lon qildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning

ma’ruzalarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan quyidagi besh strategik yo‘nalish belgilab berilgan:

-inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta’minlash;

inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

-qabul qilingan qonunlarga og‘ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta’minlash;

-sudlov islohotini amalga oshirish yo‘li bilan sud tizimini demokratlashtirish;

-aholi ayniqsa Yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, o‘rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning birdan bir zaruriy sharti sudhuquq organlarining ishlarini isloh qilish va erkinlashtirishni jadallashtirishdan iborat. Sudlar faoliyatiga prokuraturaning aralashmasligi, prokuror vaadvokatlarni huquqlarini teng lashtirish, sndlarning tarbiyaviy rolini oshirish lozimligini taqqoslab ko‘rsatadi<sup>1</sup>.

Xavfsiz jinoyatlarni ma’muriy choralar bilan almashtirish natijasida so‘nggi 2,5 yil davomida 11 milrd. so‘m undirildi. Har yuz ming kishiga hisoblaganda O‘zbekistonda 158 kishi qamoqda muddatini o‘tamoqda. Bu ko‘rsatkich AQShda 715, Rossiyada 584, Ukrainada 416, Qozog‘istonda 386 kishidan iborat.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to‘g‘risida milliy qonunchilik tizimini tashkil etuvchi yuzdan ortiq qonunlar qabul qilindi. O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 40 ga yaqin xalqaro shartnomaga qo‘sildi va ularga bizning mamlakatimizda ham amal qilinmoqda.

3-ilova.

**“O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni”**

Davlat qurilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarini bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga,

---

<sup>1</sup> I.Karimov Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida // 2005y. 28 yanvar.

fuqarolarni o‘z-o‘zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat.

Fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlariga katta umid bog‘lanadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov: “Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma’nosi shuki, davlatchiligidan rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya’ni o‘z-o‘zini boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir”-deydi.

O‘z-o‘zini boshqarish organlarini tashkil qilishda, shakllantirishda O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ushbu masalani hal qilishga milliy an’analarni, tarixiy qadriyatlarni tiklash, aholining tub manfaatlariga mos keluvchi yo‘lni tanlash nuqtai nazaridan yondashish bo‘ldi. Xususan, o‘z-o‘zini boshqarishdaasosiy tayanch qilib mahallalar belgilandi. Ular inson qalbida Vatan tuyg‘usining shakllanishiga, milliy g‘ururning vujudga kelishida, millatchilik illatlaridan xoli bo‘lishda katta ta’sir ko‘rsatib kelgan.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati demokratik jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatini kuchaytirmoqda, bu esa o‘z navbatida asosiy maqsad - fuqarolik jamiyatini qurishga ko‘maklashmoqda.

O‘z-o‘zini boshqarish muassasalari faoliyatining kengayishi bevosita mahallalarning mavqeini kuchaytirish bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini boshqarish organlari yoki mahallalarning vazifasi, aholini davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta’minalash kam ta’minalangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etish bilan cheklanib qolmaydi. Shuningdek, mahallalarda “Mahalla” xayriya jamg‘armasi yordamga muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatmoqda. Bu jamg‘arma 1994-yilda 200 ga yaqin shaxs va oilaga 41 ming 189 so‘mlik yordam ko‘rsatgan.

Faqat O‘zbekistonga xos bo‘lgan va aynan mahalla bilan bog‘liq bo‘lgan “Korxona-mahalla” iqtisodiy hududni tashkil qilish masalasi katta umid uyg‘otmoqda. 1995-yil davomida respublika bo‘yicha shu turdag‘i 204 ta kichik va xususiy korxona tashkil qilinib, ularning faoliyati orqali 3300 kishi ish bilan ta’minalangan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999-yil 13-yanvarda “Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta’minalashda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni ijtimoiy himoya sohasida o‘z-o‘zini boshqarish organlariga yangi vakolatlar berishni ko‘zda tutadi: 1) fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ijtimoiy ro‘lini oshirish; 2) hududlarni ijtimoiy rivojlantirish; 3) muhtoj oilalarga aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad ko‘rsatishni takomillashtirish.

Davlat tomonidan bajariladigan vazifalarni fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlariga o‘tkazilishi, nodavlat tashkilotlar faoliyatini

takomillashtirish, undagi jamoa ruhi va tabiatini mustahkamlashni, samaradorligini oshirishni talab qiladi. 1999-yil aprel oyida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri aynan shu maqsadga qaratilgan.

O‘zbekistonda mahalla timsolida o‘z-o‘zini boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotlarning noyob shakli azaldan mavjud bo‘lib kelgan. Mahallalarda obodonchilikka, xalqning ma’murligiga, el-yurt farovonligiga xizmat qiladigan ishlar soni ko‘paydi. Mahalla davr o‘zgarishlariga, talablariga moslasha boshladi. Qadimiy va navqiron mahalla jonlanib, unga fayz kirdi.

O‘z-o‘zini boshqaruvning moliyaviy faoliyatini mustahkamlovchi choraldan yana biri-aholiga kompleks tarzdagi savdo, maishiy va madaniy xizmatlar ko‘rsatadigan guzarlar faoliyatidir.

Oliy Majlis II chaqiriq 1-majlisida (2000-yil 22.01) Birinchi Prezident I.A.Karimov o‘zining “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz” nomli ma’ruzasida ushbu masalaning dolzarbligini shunday uqtiradi:

Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yaksalib borgani sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazib borish zarur.

Bu borada o‘zini-o‘zi boshqaradigan idoralarning, mahallalarning nufuzini va mavqeyini oshirish, ularga ko‘proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini barpo etish yo‘lidagi ishlarimizning mazmun-mohiyatini ham aynan mana shu masala tashkil etadi.

“Birgina songgi besh yilda yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida”gi hamda Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi togrisida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, mahallalar hamda ulardagи jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi.

Shunungdek, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari hamda “Mahalla” ma’rifiy teleradiyokanali tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 3-fevralda imzolangan Farmonida mahilla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yonalishlari belgilab berildi.

4-ilova

#### “Savollar xazinasи”

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar zaminida nima yotadi?

2. Demokratik huquqiy davlatning asoslari nimada?
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
5. O‘zbekistonda ikki palatali parlamentga qachon o‘tildi?
6. O‘zbekistonda qanday sud organlari faoliyat yuritmoqda?
7. O‘zbekistonda qachon va qanday siyosiy partiyalar tuzilgan?
8. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan qanday jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlarini bilasiz?
9. Nima sababdan ommaviy axborot vositalari to‘rtinchi hokimiyat deyiladi?
10. Mahalla va o‘z-o‘zini boshqarish organlarini faoliyati haqida ma’lumot bering.
11. O‘zbekistonda davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilishining tarixiy ahamiyati nimada?

Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball beriladi.

10-8 ta to‘g‘ri javobga “a’lo”

7-5 to‘g‘ri javobga “yaxshi”

4-2 ta to‘g‘ri javobga “qoniqarli”.

## 5-ilova

### Mashg‘ulot natijalari tahlili uchun anketa savolnomasi (feedback)

	<b>Savollar</b>	<b>To‘g‘ri javoblar</b>	<b>Talaba javobi</b>	<b>ball</b>
	Nechanchi yil O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq nechanchi sessiyasida Prezidentlik lavozimi joriy etildi?	3	2	0

	1990-yil 18-iyunda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida qanday deklaratсиya qabul qilindi?	4	1	0
	“O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i to‘g‘risidagi qonun”ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasi qachon qabul qildi?	1991-yil 18-noyabr	1991-yil 18-noyabr	1
	O‘zbekistonda Mustaqillik kuni umumxalq bayrami sifatida qachon nishonlanadi?	1-sentyabr	31- avgust	0
	O‘zbekistonda qachon Prezidentlik instituti joriy etilgan?	24-mart 1990-yil	24- mart 1990- yil	1
	“Mustaqillik Deklaratsiyasi” necha bobdan iborat?	17	17	1
	“Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilindi?	1992-yil 10-dekabr	1991-yil 10-dekabr	0
	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutсиysi qachon qabul qilingan	1992 yil 8 dekabr	1992-yil 8-dekabr	1
	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutсиysi necha bo‘lim va moddadan iborat	6-bo‘lim 128 moddadan iborat	6-bo‘lim 28-moddadan iborat	0
0	Qayta qurish siyosati qachon e’lon qilindi	1985- yil aprel	1985-yil aprel	1
	Barchasi:			5 ball “yaxshi” baho

Har bir to‘g‘ri javob uchun 1ball.  
 10-8 to‘g‘ri javob uchun “a’lo”.  
 7-5 to‘g‘ri javob uchun “yaxshi”.  
 4-2 to‘g‘ri javob uchun “qoniqarli”

## 5- SEMINAR. IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI. O‘ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI. ( 4-SOAT)

### 1-DARS

#### Reja

1. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar, uning strategiyasi, ustuvor yo‘nalishlari.

2. Mulkni xususiylashtirish va ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish. Bozor infratuzilmasining shakllanishi.

3. Istiqlol davrida iqtisodiyotda yangi tarmoqlarning vujudga kelishi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda avtomobilsozlik rivoji.

4. Makroiqtisodiy barqarorlik, soliq tizimidagi o‘zgarishlar.

### **Seminar mashg‘ulotining loyihasi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:** Dars jarayonida talaba O‘zbekistonda mustaqillik yillarida shakllantirilgan Bozor munosabatlari, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish, soliq tizimidagi o‘zgarishlar qanday amalga oshirilganligini tahlil qiladilar.

**Mashg‘ulot usullari: “Blits-o‘yin”, “Zinama-zina”va ”Blits-so‘rov”.**

**Mashg‘ulot instrumenti:** “Zinama-zina”usulini o‘tkazish uchun A3 formatdagi qog‘oz, talabalar sonidan kelib chiqib savollarni yozish uchun A3 formatdagi qog‘ozlar.

### **Mashg‘ulotdan kutilayotgan natija:**

Qo‘llanilayotgan usullar orqali tafakkur jarayonini rivojlantirishga oid bilim, ko‘nikma, malakalar-talaba faoliyatida namoyon bo‘ladi. Izlanish natijalari o‘qituvchi va talabani ijodkorlikka, yangilik olishga ilhomlantiradi.

**Seminar mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:** Seminar mashg‘uloti “Blits-o‘yin” va “Zinama-zina”, “Blits-savollar” interfaol usullari orqali o‘tkaziladi. Mashg‘ulot talabalarni bir necha guruhga bo‘lib o‘tkaziladi.

#### **1.“Blits-o‘yin”usuli.**

1. Bunda o‘qituvchi tinglovchilariga alohida alohida tarqatma materiallar beradi va materiallarni sinchiklab o‘rganishni talab etadi. Berilgan topshiriqlari ketma-ketlikda qog‘ozdagi alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi. Vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Tartib raqamlarini tarqatma materiallarga belgilashni tushuntiradi va buning uchun 10 daqiqa vaqt beradi.

3. O‘qituvchi talabalardan uch kishidan iborat kichik kichik guruuhlar tashkil etadi. Guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan tanishtiradi. O‘qituvchi tafakkur bo‘yicha o‘zaro tortishib, bahslashib ularga ta’sir o‘tkazadi. Ularni o‘z fikriga ishontiradi. Ular bir muqimga kelib, tarqatilgan qog‘ozdagi “Gurux bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar. Bu vazifa uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

4. Barcha kichik guruuhlar o‘z ishlarini tugatgach, harakatlar ketma-ketligini “To‘g‘ri javob” bo‘limiga belgilashni so‘raydi.

5. Endi “to‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “Yakka baho”, “Yakka xato” raqamlarni yozishni so‘raydi. “Yakka baho” bo‘limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo‘sib chiqib, umumiysi hisoblash kerakligini uqtiradi.

6. Huddi shu tartibda “To‘g‘ri javob” va “Guruh bahosi” o‘rtasidagi farq kattadan kichigini ayrish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni “Guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘siladi va umumiy son chiqariladi.

7. O‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy sonlar bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi. Bunda talabalar harakatlar ketma-ketligini 10 daqiqa ichida belgilab chiqadilar.

Guruhlarga bo‘lingan talabalar o‘zaro tortishib, fikrlashadilar, bir-birlariga ta’sir o‘tkazib, “Guruh bahosi” bo‘limiga tartib raqamlarini qo‘yadilar. “To‘g‘ri javob” bo‘limini to‘ldirib chiqadilar. Yozib olingen “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan ayiradilar. “Yakka baho” bo‘limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo‘sib chiqadilar. Huddi shu harakatni “Guruh bahosi” bo‘limi bilan bajaradilar. Natijani o‘qituvchi tahlili orqali bilib oladilar.

## **2. “Zinama-zina” usuli.**

Ushbu usul talabalardagi mavjud nazariy bilimlarni mustahkamlashga va mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga, axborotlarni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

### **O‘tkazish bosqichlari:**

1. Talabalardan kichik guruhrar shakllantiriladi va keltirilgan kichik mavzulardan ixtiyoriy birini tanlash topshiriladi.

2. Guruhrar o‘zları tanlagan mavzu yuzasidan fikr-mulohazalarini yozma ravishda bayon etadilar.

3. O‘qituvchi tomonidan talabalar faoliyati doimiy ravishda kuzatib boriladi.

4. Bahs –munozaraga kirishishlari ta’milanib boriladi.

5. Talabalarni o‘zları bajargan topshiriqlari bo‘yicha himoyaga chiqishlari tashkillashtiriladi.

6. O‘qituvchi mavzuning mohiyatini yorituvchi bo‘limlarga talabalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni tahlil etadi va talabalarning o‘zlashtirish natijalarini aniqlaydi.

## **3. ”Blits-so‘rov”**

	savollar	javoblar
	Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida respublika Prezidenti tomonidan qaysi yo‘nalishlar belgilab berildi?	
	Dastlabki vaqtning o‘zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo	

	etadigan qancha qonun xujjatlari qabul qilingan?	
	Mulkni xususiylashtirish va davlat tassarrufidan chiqarishdan maqsad nima edi?	
	Istiqlol yillarida iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar qanday natijalarga olib keldi?	
	Iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni qanday?	
	Avtomobilsozlik sanoatining tashkil topishi bilan O'zbekiston avtotransport ishlab chiqaruvchilar xalqaro tashkilotining nechinchi a'zosi sifatida qabul qilindi?	
	Avtomobil sanoatiga dahldor qanday qarorlar qabul qilindi?	
	Milliy avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi natijasida qanday rusmli avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi?	
	O'zbekiston elektrotexnika sohasi ishlab chiqarayotgan maishiy texnikaning necha foizi Rossiyaga eksport qilinmoqda?	
0	Makroiqtisodiy barqarorlik deganda nimani tushunasiz?	
1	2019-yil soliq tizimiga qanday o'zgartirishlar kiritildi?	

## **6-SEMINAR. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIY O'ZGARISHLAR. (2 soat)**

### **REJA**

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi
2. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari
3. Aholining turmush darajasini yuqori darajada ta'minlash
4. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati.

## **Seminar mashg‘ulotining loyihasi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:** Dars jarayonida talaba O‘zbekistonda mustaqillik yillarida shakllantirilgan bozor munosabatlari, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar xaqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish, soliq tizimidagi o‘zgarishlar qanday amalga oshirilganligini tahlil qiladilar .

**Mashg‘ulot usullari:** “Ha-yo‘q”, “B/BH/B” va “Insert”.

**Mashg‘ulot instrumenti:** “Zinama-zina”usulini o‘tkazish uchun A3 formatdagi qog‘oz, talabalar sonidan kelib chiqib savollarni yozish uchun A3 formatdagi qog‘ozlar.

**Mashg‘ulotdan kutilayotgan natija:**

Qo‘llanilayotgan usullar orqali tafakkur jarayonini rivojlantirishga oid bilim, ko‘nikma, malakalar-talaba faoliyatida namoyon bo‘ladi. Izlanish natijalari o‘qituvchi va talabani ijodkorlikka, yangilik olishga ilhomlantiradi.

**Seminar mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:** Seminar mashg‘uloti “Ha-Yo‘q”, “B/BH/B” va “Insert” interfaol usullari va jadvallari orqali o‘tkaziladi. Mashg‘ulot talabalarni bir necha guruhga bo‘lib o‘tkaziladi.

,

B/BH/B Jadvali—  
Bilaman/Bilishni  
xohlayman/Bilib oldim.  
Mavzu, matn, bo‘lim  
bo‘yicha  
izlanuvchanlikni olib  
borish imkonini beradi.  
Tizimli fikrash,  
tuzilmaga keltirish,  
tahlil qilish  
ko‘nikmalarini  
rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan  
tanishadilar. Aloxida guruxlarda  
jadvalni rasmiylashtiradilar.

Mavzu bo‘yicha nimalarni  
bilasiz" va "Nimalarni bilishni  
xoxlaysiz" degan savolga javob  
beradilar. Jadvalning 1 va 2-  
bo‘limlarini to‘ldiradilar.

Maruzalar tinglaydilar

Mustaqil guruhlarda jadvalning  
3-bo‘limini to‘ldiriladi.

## “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIY O‘ZGARISHLAR”.

### “B/BH/B” jadvali.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Insert jadvali:

-ma’lumotlarni tizimlashtirishni (mustaqil o‘qish, ma’ruzadan olingan), tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish;

-qabul qilinayotgan ma’lumotning tushunarligini nazorat qilish, avval egallangan ma’lumotni yangisi bilan bog‘lash qobiliyatlarini shakllantirishni ta’minlaydi;

-o‘quv ma’lumotini mustaqil o‘rganganidan so‘ng qo’llaniladi.

Insert jadvalining tuzilishi va uni to‘ldirish qoidasi bilan tanishadilar

O‘quv jarayonida olingan ma’lumotlarni individual holda tizimlashtiradilar;

Matnda qo‘yilgan belgilar asosida jadval ustunlarini to‘ldiradilar: V-...haqidagi bilimlarga javob beradi; +-yangi ma’lumotlar;-men bilgan narsaga zid? meni o’ylantiradi

## **7-SEMINAR. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT (4 soat).**

### **REJA:**

1. O'zbekiston Respublikasidagi mustaqillik yillarda ma'naviy merosimiz va milliy qadriyatlarimizning tiklanishi.
2. Tarixiy meros, mutafakkir avlodlarning ma'naviy meros kelajak yutuqlarimiz garovi.
3. Milliy va diniy qadriyatlarimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.
4. Millatlararo tinchlik va konfessiyalararo totuvlik-barqarorlik garovidir

### **Seminar mashg'ulotining loyihasi.**

**Mashg'ulotning maqsadi va vazifalari:** Talabalarga mustaqillik yillarda amalga oshirilgan ma'naviy-madaniy taraqqiyot va milliy qadriyatlar borasida amalga oshirilgan ishlar va uning tarixiy ahamiyatini yetkazish. Talabalarda tarixiy merosga milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash. Vatanni sevish, uni ardoqlash ajdodlar merosni asrab–avaylash bu kungacha qo'lga kiritilgan yutuqlarni yuksaltirishga ishonch uyg'otish.

**Mashg'ulot usullari:** Bumerang, «Savollar xazinasi»

**Mashg'ulotda qo'llaniladigan mahsulotlar:** A-4 formatli 5 nusxada qog'oz, 5 ta furshetkalar, 5 ta rangli qog'ozda mashg'ulot rejasiga asosida “Savollar xazinasi”. A-4 formatli 5 nusxada qog'oz, 5 ta furshetka, 5 ta rangli qog'ozda mashg'ulot rejasiga asosida “Savollar xazinasi”.

**Mashg'ulot natijasi:** O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish, ma'naviy yuksalish va madaniy taraqqiyot yo'lidagi tub o'zgarishlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar.

**Javoblar tahlili:** Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi;  
8-10 tacha to'g'ri javob uchun “a'lo”, 5-7 to'g'ri javob uchun – “yaxshi”,  
2-4 to'g'ri javob uchun “qoniqarli” baho qo'yildi. Umuman javob bo'lmasa – “qoniqarsiz” - 0 ball qo'yiladi.

### **Seminar mashg'ulotini o'tkazish tartibi:**

Amaliy mashg'ulot interfaol usullardan Bumerang va “Savollar xazinasi”ni qo'llagan holda o'tkaziladi. O'qituvchi sonlar qo'yilgan varaqlar yordamida talabalarni 5 guruhga bo'ladı.

1-bosqich har bir guruhga oldinidan tayyorlangan mavzu doirasidagi “qisqacha ma'lumotlarni” tarqatib chiqadi. Berilayotgan “qisqacha ma'lumot” hajmi har bir guruh uchun bir xil bo'lishi kerak. Chunki ularga ushbu ma'lumotni o'rganish uchun bir xil vaqt ajratiladi. Ajratilgan vaqt mobaynida har bir guruh a'zosi ma'lumotnomani o'qib, tushunib tahlil qila olishi kerak.

Namuna sifatida quyidagi qisqa ma'lumotnomha tavsiya etiladi;

1. O'zbekiston Respublikasidagi mustaqillik yillarida ma'naviy merosimizni va milliy qadriyatlarimizning tiklanishi.

2. Tarixiy meros, mutafakkir avlodlarning ma'naviy meros kelajak yutuqlarimiz garovi.

3. Milliy va diniy qadriyatlarimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.

4. Millatlararo tinchlik va konfessiyalararo totuvlik-barqarorlik garovidir

2-bosqichda guruhning har bir a'zosi boshqa guruh a'zolari bilan birlashishi kerak. Ya'ni har bir guruhda boshqa guruh a'zolari boshqa guruh a'zolaridan vakil bo'lishi kerak. Shunday qilib, 5 ta guruhda 5 ta qisqacha topshiriqni o'zlashtirgan talabalar yig'iladi. Bu bosqichda barcha guruh a'zolariga o'zi o'qigan m'lumot haqida o'rtoqlariga gapirib berish vazifasi qo'yiladi. Bu bosqich talabalarga yangi ma'lumotlar bilan tanishish va o'zlashtirgan ma'lumotlarini o'zaro o'rtoqlashishga imkon beradi.

3-bosqichda to'la ma'lumotga ega holda o'z guruhlariga qaytadilar, ya'ni yangi ma'lumotlarni o'zlashtirgan holda guruhlarga qo'shiladilar. Bu bosqichda guruh a'zolari bir-birlariga ma'lumotlarni etkazadilar, yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar, bu ma'lumotlarni mustahkamlaydilar, bilimlarini aniqlaydilar. Shu tarzda 3-bosqich ham tugaydi.

4-bosqichda talabalarga alohida tayyorlanib o'tirish taklif etiladi. O'qituvchi tomonidan mavzuning mohiyatini ochib beruvchi «Savollar xazinasi» deb nomlanuvchi savollar talabalarga tarqatiladi va savollarni o'qib eshittirish taklif etiladi.

Ajratilgan qisqa vaqt ichida talaba aniq lo'nda savollarga javob berishi kerak. So'ngra o'qituvchi to'g'ri javobni aytadi va talabadan javobidagi xatoliklarni to'g'irlash talab etiladi.

5-bosqichda talaba seminar mashg'ulotida yig'gan balini hisoblaydi va yo'l qo'ygan xatolarni tahlil qiladi, uning sabablarini aniqlaydi. Shu tariqa talabalar yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, mustahkamlaydilar, tahlil qiladilar va xulosalar qilishni o'rganadilar.

## 1-Illova

O'zbekiston Respublikasida ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga hetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borilmoqda.

Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga yetkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdir.

Bozor munosabatlari sharoitida ma’naviyat va ma’rifat ishlariga g‘oyat katta e’tibor berilishi mustaqil O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Shu borada “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tashkil qilish va ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan 1994-yil 23-apreldagi va keyingi Prezident farmonlari Respublikada ma’naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 2-iyundagi Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi yangi farmoni mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni izchil amalgaoshirish, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo‘lgan edi. **Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tub o‘zgarishlar ro‘y berdi.** Bu avvalo teatr san’ati, milliy musiqa, me’morchilik, adabiyot sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. 2001-yilning davlat byudjetidan madaniyat va san’at muassasalarini rivojlantirish uchun 12 milliard 703 million so‘m (bu ko‘rsatkich 2000-yili 9 mlrd. 463 mln. so‘mni tashkil qilgan edi) ajratilishi fikrimizning guvohidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada yangi teatr jamoalari tashkil etildi. 1991-1994 yillarda bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi. 1993-yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan “Turkiston” saroyi nafaqat me’morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlari bo‘ladigan dargohga aylandi. 1998-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi. Bu farmonga muvofiq O‘zbekiston tomosha san’atining ko‘p asrlik an’analalarini o‘rganish, boyitish va targ‘ib qilish, teatr san’atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarining faol qatnashishini ta’minlash maqsadida “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Teatrlarning 90-yillarning ikkinchi yarmidagi repertuarlarida tarixiy pyesalar keng o‘rin oldi. 1996-yili Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan 10 ta yangi spektakllar sahnalashtirildi. “Navro‘z-97” teatr festivali munosabati bilan Sohibqiron obrazini ifodalovchi 14 ta spektakl namoyish etildi. 1998-yili al-Farg‘oniy, al-Buxoriylarning yubileylariga bag‘ishlangan pyesalar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixini namoyish etuvchi spektakllar Toshkentni yetakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlarning teatr sahnalarida qo‘yildi. 1995-1997 yillari Respublika teatrlari tomonidan 313 yangi spektakllar qo‘yildi.

O‘zbekistonda musiqa va raqs san’atini rivojlantirish maqsadida “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san’atini rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘zda tutildi. San’atning barcha sohalari, madaniy-ma’rifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublika Prezidentining doimo e’tibor markazida bo‘lib keldi. Sovetlar davridagi madaniyat o‘quv ishlari qayta tuzilib, ko‘plab yangi o‘quv maskanlari tashkil etildi. 90-yillar oxirida mamlakatda 27 ta maxsus o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatdi. Shundan bittasi oliy o‘quv yurtlari, 20 ta o‘rta maxsus bilim yurtlari, 2 maktab-internat.

Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, o‘zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho‘lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvar qori singari millatparvar yozuvchi, ma’rifatparvarlar ijodi xolisona o‘rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalarida o‘z o‘rnini egalladi.

Mustaqillik sharofati bois mo‘tabar Qur’oni Karim va hadislar chop etildi. Bunday asarlarning xalqimiz qo‘liga yetib borishi butunlay yangi, sog‘lom, sof milliy g‘oyalarimiznng, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Adabiyot sohasidagi va ko‘plab nashr etilgan boshqaasarlar milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining buyuk hayotbaxsh kuchini ko‘rsatadi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroq dorlari O‘zbekiston qahramonlari Sayid Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O‘zekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Sa’dullayevlar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Milliy istiqlol davridagi o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharofiddinov, Begali Qosimov, Nayim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliyev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida o‘rin egallaydi. T.Malikning romanlari, O.Matjon, O.Hojiyeva, X.Sultonov, A.Suyun, Y.Eshbek, H.Do‘stmuhamed, Sh.Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g‘oyaviy yetuk asarlari o‘zbek milliy istiqlol adabiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Millatimizning o‘zligini anglashda milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o‘rin tutadi. Shu jihatdan Birinchi Prezident I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni muzeylar ishlarini rivojlantirishda dastur rolini bajarmoqda.

Mustaqillik yillari respublikamizda muzeylarga bo‘lgan e’tibor oshib bormoqda “Temuriylar tarixi davlat muzeyi”ni qurilishi, “O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi”, “Xalq amaliy san’ati muzeyi” ning qayta jihozlanishi buning dalolatidir. Hozirgi kunda davlat qaramog‘idagi muzeylar 81 tani tashkil qilib,

shulardan 15 tasi tarix muzeylari, 23 ta o‘lkashunoslik, 10 ta badiiy san’at koshonasi, 20 ta memorial muassasa, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylaridir.

Shuningdek, mamlakatning shaharlari va tumanlarida 510 ta muzey xalqimizning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish etmoqda va kishilarimizni, yosh avlodni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalashga o‘zlarining hissalarini qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi jami muzeylarda 2000-yil boshlarida 1.350 ming eksponatlar saqlanmoqda va bularni o‘tgan davrda **1.655.400 kishi** tomosha qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan (PQ-3160) “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori bilan Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi qayta tashkil etildi, uning dolzarb vazifalari belgilandi. Bu esa jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

2017-2018 yillarda Prezidentmiz tomonidan huquq organlari faoliyatini tartibga solish, yanada takomillashtirish, xodimlarining moddiy manfaatdorligini ta’minlash va eng bu soha kadrlarini huquqiy masalalarda adolat, halollik va mas’uliyat bilan ishslashlarini ta’minlashda juda katta va salmoqli ishlar olib borildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnoma”sida yurtimizdagи ijodiy uyushmalarning ijtimoiy hayotimizdagи o‘rni va nufuzini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondi, shuningdek, madaniyat va san’at muassasalari hamda yirik kompaniya va banklar hamkorligida “Do‘sstar klublari”, Toshkent shahridagi Milliy bog‘ hududida muhtasham Adiblar xiyoboni tashkil etilganligi, Yozuvchilar uyushmasining yangi binosi, Qoraqalpog‘istonda va bir qator viloyatlarimizda ulug‘ adiblarimizning nomlari bilan atalgan ijod maktablari barpo etilganligi ta’kidlab o‘tilgan.

Oxirgi yillarda madaniyat va san’at sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi. O‘zbek milliy maqom san’atining noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2018-yil 6-aprelda “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 6–10

sentyabr kunlari Shahrisabzda 73 davlat vakillari ishtirokida birinchi Maqom san'ati xalqaro forumi bo'lib o'tdi. Tadbir ishtirokchilari va mehmonlarning fikriga ko'ra, ushbu anjuman jahon madaniyatining mulkiga aylangan noyob o'zbek milliy maqomini saqlash va rivojlantirishga katta hissa qo'shamdi. 2018-yil 24-iyulda O'zbekiston Prezidentining "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda kino san'atini yanada rivojlantirish, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha muhim tadbirdarga asos bo'lmoqda. Bugungi kunda "O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-noyabrda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda Surxondaryo viloyati hokimligining Termiz shahrida har ikki yilda bir marta xalqaro baxshichilik san'ati festivalini tashkil etish hamda ushbu festivalni birinchi marta 2019- yil 5–10 aprel kunlari o'tkazish haqidagi taklifi ma'qullandi<sup>2</sup>.

Shuningdek o'zbek milliy maqom san'ati markazi va muzeyi tashkil etidi, ushbu can'at yonalishin rivojlantirish tizimi yaratildi.

## 2-Ilova

**Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, moddiy va ma'naviy boyliklari, jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan allomalarining ulkan merosiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ularning merosini qayta tiklash, tarixiy shaxslar, buyuk allomalar, shaharlar, madaniy yodgorliklarning yubiley va bayramlarini o'tkazish an'anaga aylandi. «Bu yerda gap tantanalardagina emas, - degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, - muhimi, biz ularning o'z davrida kelajak avlodlar uchun qoldirgan salmoqli merosi, ijobiy ishlari, kerak bo'lsa, umumjahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini qadrlaymiz. Albatta, har bir millat o'z ajdodlarini eslash, ularning hurmatini joyiga qo'yishga intiladi.**

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишиланган Илмий-Оммабоп қўлланма // Тошкент. Маънавият, 2019 й, Б-26-27.

**Faqat bu kabi xayrli ishlar o‘z mohiyati jihatidan xalqlarni yaqinlashtirishga, ularni hamjihat etishga xizmat qilsin»<sup>3</sup>.**

Ushbu ezgu maqsad yo‘lida mustaqillik yillarida YuNESKO bilan hamkorlikda quyidagi tarixiy sanalar keng nishonlandi:

- 1991 yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi.**
- 1993 yil – Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi.**
- 1994 yil – Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi.**
- 1995 yil – Mahmud Zamashariy tavalludining 920 yilligi.**
- 1995 yil – Najmuddin Kubroning 850 yilligi.**
- 1996 yil – Amir Temuring 660 yilligi.**
- 1997 yil – Buxoro shahrining 2500 yilligi.**
- 1997 yil – Xiva shahrining 2500 yilligi.**
- 1998 yil – Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi.**
- 1998 yil – Ahmad Farg‘oniy tavalludining 1225 yilligi.**
- 1999 yil – Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi.**
- 1999 yil – «Alpomish» dostonining 1000 yilligi.**
- 2000 yil – Burhoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi.**
- 2000 yil – Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi.**
- 2000 yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi.**
- 2001 yil – «Avesto» kitobining 2700 yilligi.**
- 2002 yil – Termiz shahrining 2500 yilligi.**
- 2002 yil – Shahrisabz shahrining 2700 yilligi.**
- 2003 yil – Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi.**
- 2004 yil – Xo‘ja Ubaydulloh tavalludining 600 yilligi.**
- 2006 yil – Qarshi shahrining 2700 yilligi.**
- 2006 yil – Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi.**
- 2007 yil – Samarqand shahrining 2750 yilligi.**
- 2007 yil – Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi.**
- 2009 yil – Toshkent shahrining 2200 yilligi.**

O‘tkazilgan tantanalar, anjumanlar va tadbirlar o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, jonkuyarligi, aql-idroki va tafakkuri mahsuli, uning buyuk ajdodlar merosi, mehnati va ko‘rsatgan jasoratiga chuqur ehtiromidir. Bu meros ulkan ummonki, har bir avlod undan kuch-qudrat, g‘ayrat va ilhom oladi, tarixiy xotirasini jonlantiradi, fuqarolik ongini shakllantiradi, axloqiy tarbiya hamda ibrat manbaiga aylanadi<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. // Каримов И. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Асарлар, 7-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 148.

<sup>4</sup> Каримов И. Ўзбекистоннинг XXI аср бўсафасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.// Каримов И. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Асарлар, 6-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б.127.

Ma’naviy hayotimizda muhim bo‘lgan, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom akademiyasi kabi ilmiy-ma’rifiy muassasalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ishlari boshlanganini, buyuk allomalarimizning yodgorlik majmualari qoshida hadisshunoslik, islom huquqshunosligi, tasavvuf, kalom va aqida ilmi kabi diniy-ma’rifiy yo‘nalishlarni o‘rganish bo‘yicha maxsus maktablar tashkil etilganligi, bu ishlarimizning chuqur ilmiy va amaliy asoslarga egaligiga e’tibor qratilgan.

Ma’lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebafo merosi, butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda-ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy meroslarini o‘rganish katta o‘rin egallaydi. Shu sababli

Yurtimiz hali ittifoq tarkibida bo‘lgan, Kremlning hukmronligi hali kuchini yo‘qotmagan bir paytda – 1990-yil iyun oyida Respublika Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilishi to‘g‘risida”gi farmonga imzo chekdi. O‘zbekiston hukumatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi bilan 1991 - yilda Haj qilish baxtiga 350 kishi sazovor bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yili hojilarning soni 3801 kishiga yetdi. Jami mustaqillik yillari Haj ibodatini ado etishga muvaffaq bo‘lganlarning soni 31.057 kishini tashkil qildi.

2018-yilda Haj safariga boruvchilar 7 ming nafar kishini tashkil etmoqda, Umra safariga borishni istagan barcha fuqarolar uchun to‘la imkoniyat yaratildi

Xalqimiz asrlar davomida nishonlab kelgan bayramlaridan biri “Navro‘z” umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi. 1992-yil Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami deb e’lon qilindi. 2018 yildan boshlab, bu bayramlar kunlari uch kun nishonlanadigan bo‘ldi.

“Movarounnahr” diniy boshqarmasi faoliyati Respublikamiz hayotida o‘z o‘rnini egalladi. Diniy boshqarma qoshida Islom Universiteti va viloyatlarda madrasalar tashkil etildi. «Islom nuri» gazetasi chop etilmoqda. Mustaqillik arafasida O‘zbekiston bo‘yicha 87 masjid bo‘lsa, 1998-yilda ularning soni 3000ga, hozir esa 5000dan ortdi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an’analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. O‘zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir. Hozirgi kunda ko‘p millatli O‘zbekiston

Respublikasida islam dini bilan bir qatorda o'n to'rtta diniy konfessiyalar yonmay-yon yashab kelmoqda.

1995-yili rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasini tashkil etilganligining 125 yillik yubileyi, O'zbekiston evangel-lyutteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag'ishlangan "Bir osmon ostida" shiori bilan musulmon vaxristian dinlari vakillari o'rtasida o'tkazilgan muloqot kayta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000 yilning sentyabrida YUNESKO rahnamoligida "Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida" mavzuida dinlararo muloqot xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda AQSh, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o'ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Anjumanni o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu o'lkadan dunyoga dong'i ketgan buyuk allomalar, islam olamida katta hurmatga ega bo'lgan buyuk zotlar yetishib chiqqan. Hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam qaror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda.

#### 4- ilova

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar negizida xavsizlik millatlararo totuvlik va diniy bagrikenglik davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130dan ortiq millat va elat vakillari 138 ta milliy madaniy markazlarga birlashib O'zbekiston umumiyligi shiori ostida katta bir oilaning farzandlaridek yashamoqdalar. 2017-yil 19-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Bu esa jamiyatimizda millatlararo hamjihatlik va bagrikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda yana bir qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Diniy muassasalar faoliyatining qonun asosida olib borilishi ta'minlanadi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi bilan bog'liq huquq hamda burchlari aniq-ravshan belgilab qo'yildi.

Ko'p millatli davlatimizda millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning **asosiy sharti qilib belgilandi**.

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik mamlakatimizda qurilayotgan **demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan** biri sanaladi.

Zotan, bag'rikenglik fuqarolar orasida totuvlikni ta'minlaydi, jamiyatda tabiiy ravishda uchraydigan ijtimoiy farqlarning keskinlashuviga, **ijtimoiy nizolarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydi**. Bugun nafaqat yurtimizda, balki butun **yer yuzida diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo o'zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamovilga aylanmoqda**.

Hozirgi globallashuv jarayonida diniy bag'rikenglik muammosi jahon hamjamiyati davlatlari uchun g'oyat dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

1995-yil 16-noyabrda BMTning fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti YUNESKO tomonidan Bag'rikenglik prinsiplari deklaratsiyasining qabul qilinishi buning yorqin dalilidir. Birlashgan millatlar tashkiloti esa har yilning 16-noyabrini "Bag'rikenglik kuni" deb e'lon qildi.

Ushbu deklaratsiyada e'tiqod va vijdon erkinligiga ham e'tibor qaratilgan. Uning 1-moddasida, bag'rikenglik o'zimiz yashab turgan dunyo madaniyatining boy va xilma-xilligi, inson individualligining namoyon bo'lish shakllari va usullarini hurmat qilish, uni qabul qilish va to'g'ri tushunish hamda vijdon va e'tiqod erkinligi sifatida izohlangan.

Mamlakatimiz rahbari 2017-yil 19-sentyabr kuni **Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik"** nomli maxsus rezolyuesiyani qabul qilish to'g'risidagi taklifi bilan chiqdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda **Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro tadqiqot markazi** va **Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi** tashkil etilayotgani to'g'risidagi axborot juda ko'plab delegatsiya a'zolarida qiziqish uyg'otdi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda yuzlab masjidlar, cherkovlar, sinagoga va ibodat uylari qurildi va qayta ta'mirdan chiqarildi. Ular qatorida Toshkentdag'i "Hazrati Imom" majmui, viloyat markazlaridagi jome' masjidlar, Toshkentdag'i Rus pravoslav cherkovlari, shuningdek, buddaviylik ibodatxonasi, Samarqanddag'i Arman Apostol cherkovi, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Sultan Vays bobo" va "Muhammad Norimjoniy" ziyoratgohlari, "Panteylemon" cherkovi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bularning barchasi dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ko'rinishidir.

O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va elatlar tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatları, milliy an'ana va urf-odatlarını saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish maqsadida **138 milliy madaniy markaz va 34 do'stlik jamiyat faoliyat ko'rsatmoqda**.

## 5- ilova

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

## **QARORI O‘ZBEK MILLIY MAQOM SAN’ATINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Ushbu **QARORGa ko’ra** xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi.

Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongan. Maqom san’atining gultoji bo‘lgan «Shashmaqom» YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatda e’tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san’atini o‘rganish va rivojlanirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o‘zbek «Shashmaqomi» nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo‘shiqlarining magnit lentalarga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqeа bo‘ldi.

Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblı, hududlarda maqom jamoalari, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo‘nalishda maxsus kafedra faoliyat ko‘rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim.

Ayni vaqtida milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlanirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti.

Mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio-televide niye, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislarining, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari e’tibordan chetda qolib kelmoqda.

Yuqorida zikr etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, o‘zbek maqom san’atini chuqur o‘rganib, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning «oltin fondi»ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ‘ib qilish maqsadida: Миллий мақом маркази фаолиятини йўлга кўйиш, o‘zbek maqom san’ati mumtoz va zamonaviy ijro

namunalarining «oltin fondi»ni yaratish; maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablari va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash; o'zbek maqom san'ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining «oltin fondi»ni yaratish; xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish, hududlarida taniqli maqom ijrochilarining konsertlarini va mahorat darslarini tashkillashtirish; maqom san'atini radio-televide niye, ommaviy axborot vositalari va Internet orqali O'zbekiston va chet ellarda keng targ'ib etish, maqom san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va targ'ib qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish; **кўзда тутилди.**

### **“Savollar xazinasi”**

1. Mustaqillik yillarida qaysi mashxur insonlar, jamoat arboblarining yubileyları o'tkazildi?
2. “O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonun nechanchi yil qabul qilindi?
3. 1996-yil ning 22-24 aprel kunlari Yunesko doirasida Parijda o'tkazilgan xalqaro tadbirlar kimning sharafiga o'tkazilgan edi?
4. 1996-yil Samarqand, Shaxrisabz shaharlari qanday orden bilan taqdirlandi?
5. Mustaqillik yillarida xalq sevgan qanday milliy bayramlarimiz tiklandi?
6. Mustaqillikning nechanchi yillarida Haj safariga borish uchun Prezident Farmoni e'lon qilindi?
7. Qachon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori imzolandi?
8. Mamlakatimizning qaysi shaxarlarida Imom Buxoriy nomidagi xalqaro tadqiqot markazi va Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi?
9. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qaysi kunlari Shahrisabzda 73 davlat vakillari ishtirokida birinchi Maqom san'ati xalqaro forumi bo'lib o'tdi?
10. O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va elatlar tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish maqsadida nechta markaz va do'stlik jamiyat faoliyat ko'rsatmoqda?.

**Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi.**

**10-8 ta to'g'ri javobga “a'lo”**

7-5 to‘g‘ri javobga “yaxshi”

4-2 ta to‘g‘ri javobga “qoniqarli”.

## **8- seminar. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR (2 soat)**

### **REJA:**

1. Mustaqillik ostonasida O‘zbekiston SSRda ta’lim tizimining holati va O‘zbekistonda mustaqillik yillarda ta’lim tizimidagi islohotlar.
2. Ta’lim tizimining mazmun mohiyatining jahon standartlariga mos keltirish borasidagi o‘zgarishlar.
3. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim sohasining sifat o‘zgarishlari hamda xalqarolashtirish tamoyillari.
4. Fan, oliv ta’lim va ishlab chiqaruvchilar integratsiyasining qabul ko‘rsatkichlardi o‘rnini.

### **Seminar mashg‘ulotining loyihasi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:** Talabalarga mustaqillik yillariga qadar ta’lim tizimi va mustaqillikdan keyin ushbu sohadagi islohotlar mazmun mohiyatini ochib berish.Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi sifat o‘zgarishlar, fan va ta’lim integratsiyasini yoritish.

**Mashg‘ulot usullari:** “**Qisqa ma’lumotnoma**”, “**Davra suhbati**”, “**Taqdimot**”.

**Mashg‘ulot instrumenti:** A4 formatdagi qog‘oz, rangli ruchka va markerlar, A3 formatdagi tasvir tushirilgan ilova, jadval.

**Mashg‘ulotdan kutilayotgan natija:**Talabalar bilimi doirasida baholanadi.

**Seminar mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:** mashg‘ulot 3 ta bosqichda o‘tkaziladi.

**1-bosqich.** O‘qituvchi Respublikamizda ta’limning yangi tizimini amalga oshirishda, O‘zbekiston hukumati tariximizdagi ta’lim jarayonlarini o‘rganib chiqib, ilg‘or taraqqiy etgan mamlakatlarning ta’lim tashabbusini inobatga olib ta’limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e’tibor ta’lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnik bazasini, zamon va davr talablari darajasiga ko‘tarish va O‘zbekistonning ma’rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratilganligi haqida ma’lumot beradi (**1-ilova**).

**2-bosqich.** “**Davra suxbati**” usulida amalga oshiriladi. Talabalarga munozara uchun savollar tarqatiladi (**2-ilova**).Talabalarga ushbu mashg‘ulotni

**Mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:** Talabalarga 2017- yil 7-fevral oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining ahamiyati va zaruriyatini ochib berish, Harakatlar strategiyasi davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustivor yo‘nalishlarni amalga oshirishga zamin yaratishi, Harakatlar strategiyasi jamiyat hayotining barcha sohalari uchun “yo‘l xaritasi”ga aylanganligi, uning asosida mamlakatimizda so‘nggi to‘rt yil davomida ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi. Jahan hamjamiyati nigohida O‘zbekistonning imidji o‘zgarib, uning investitsiyaviy jozibadorligi ortib borayotganligi, Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat ekanligini yoritishdan iboratdir.

### **Mashg‘ulot usullari: “ Savollar xazinasi” , “Assigment” ,”Taqdimot”.**

**Mashg‘ulot instrumenti:** A4 formatdagi qog‘oz, rangli ruchka va markerlar, A3 formatdagi tasvir tushirilgan ilova, jadval.

**Mashg‘ulotdan kutilayotgan natija:** Qo‘llanilayotgan usullar orqali tafakkur jarayonini rivojlantirishga oid bilim, ko‘nikma, malakalar - talaba faoliyatida namoyon bo‘ladi. Izlanish natijalari o‘qituvchi va talabani ijodkorlikka, yangilik olishga ilhomlantiradi.

**Seminar mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:** mashg‘ulot 3 ta bosqichda o‘tkaziladi.

#### **1-bosqich**

#### **“Savollar xazinasi ”**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yilga qanday nom berish taklif etildi?

2. Yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi va qoidalari qaysi hujjatda o‘z aksini topgan ?

3. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan ?

4. 2017- yil fevral oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, necha bo‘limdan iborat ?

5. “Yangi O‘zbekiston – maktabostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g‘oya asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi qanday?

6. “Hayot davomida o‘qish” tamoyilini siz qanday tushunasiz?

7. Nima uchun Murojaatnomada fizika fani va chet tillarni o‘rganish 2021-yil uchun ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berildi?

8. Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonining ikki barobarga ko‘paytirilishi, Sizningcha, qanday samara beradi?

9. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etishning sabablari nimada?

10. Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga necha marta o‘zgartirish kiritildi?

Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball beriladi.

10-8 ta to‘g‘ri javobga “a’lo”

7-5 to‘g‘ri javobga “yaxshi”

4-2 ta to‘g‘ri javobga “qoniqarli”.

## **2-bosqich** **“Assigment”**

Test 1. <b>1991-yil 25-avgustda O‘zbekiston SSR Prezidenti Farmoni:</b>	Aniq va tizimli bayon eting
--	-----------------------------

<p>A. Ichki ishlar vazirligi va Davlat Xavsizlik Qo‘mitasi qonun yo‘li bilan O‘zbekiston SSR tassarrufiga o‘tkazildi.</p> <p>V. Respublika manfaatlari, xavfsizligi va aholisi tinchligini o‘ylab chiqarilgan;</p> <p>S. O‘zbekiston hududidagi SSSR Ichki Ishlar Vazirligi tasarrufidagi qo‘sishinlar bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysundirildi, Turkiston harbiy okrugi qo‘sishinlari va bo‘limmalari partiya tarkibidan chiqarildi.</p> <p>D. A, V, S javoblar to‘g‘ri.</p> <p><b>2. “2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi yo‘nalishi qanday nomlangan?</b></p> <p>A. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;</p> <p>V. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;</p> <p>S. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;</p> <p>D. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.</p> <p><b>3. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ilgari surgan 5 tashabbusdan 4 tasi yoshlarning ma’naviyatini ko‘tarishga ularning tashabuskorlik xislatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.</b></p> <p>A. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirish;</p> <p>V. Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.</p> <p>S. Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirish;</p> <p>D. Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.</p>	<p>“O‘zbek modeli”ning asosiy prinsiplarini sanab o‘ting</p>
Termin	Amaliy ko‘nikmalar

“Ommaviy madaniyat”ga munosabat bildiring	G‘oya mohiyati: “Sen agar ozodsan - ozod bo‘l, sen agar davlatsan - davlat bo‘l”.
---	---

**3-bosqich**

**“Taqdimot”.**



**O’zbekiston Respublikasi  
Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi  
Islom Karimov nomidagi  
Toshkent davlat texnika universiteti**

## ***TAQDIMOTI***

# **YANGILANAYOTGAN O’ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN-MILLIY YUKSALISH SARI**

Tarix fanlar doktori, professor  
Holiqova Rahbar Ergashevna

## Reja

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ahamiyati
2. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.
3. Qonun ustuvorligini ta'minlash – fuqarolar huquq va erkinliklarining muhim garovi.
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishilari.
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish: Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin qizlarning ijtimoiy - siyosiy faoligini oshirish
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.



**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Shavkat Miromonovich  
Mirziyoev 2017 yil 7 fevral kuni  
“O'zbekiston Respublikasini  
yanada rivojlantirish bo'yicha  
Harakatlar strategiyasi  
to'g'risida”gi farmonni imzoladi.**



## Harakatlar strategiyasi

Harakatlar strategiyasi yangi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon ruhiga monand jadal rivojlantirish, yangilanish modeli sifatida mamlakatimizning barcha jabhalarini takomillashtirishning ham ilmiy-nazariy, ham amaliy-konstruktiv poydevoridir. Harakat so'zining o'ziyoq yangilanishga da'vat, katta ijtimoiy, iqtisodiy va intellektual o'zgarishlar, shiddat bilan ilgarilanish da'vati sanaladi. "Harakat so'zining o'zi arab tilidan "joyidan siljitmoq", "qo'zg'atib yubormoq", "ta'sir ko'rsatmoq", "o'zgartirmoq", "yaxshilamoq" degan ma'nolarni ifodalasa, bu so'z biror bir "xavrlı ishni boshlamoq", "shug'ullanishga faol kirishmoq", "og'ir, ammo muhim vazifalarni bajarishga astoydil yondashmoq" degan ma'nolarga ham ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 7 fevralb kuni qabul qilingan Farmon asosida 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Aytish mumkinki, Harakatlar strategiyasi mamlakatimizni besh yilga rejalashtirilgan islohotlar tizimidir.



2017-2021 ЙИЛЛАРДА  
ХАРАКАТЛАР  
СТРАТЕГИЯСИ

- I. Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish  
(Moviy havorang – osmon va toza suv ramzi, buyuk Amir Temur davlatining bayrog'ining rangi)
- II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini vanada isloh qilish  
(Sivohrang – qomuniylik elementlari hisoblangan ustuvorlik va or-nomuslik ramzi)
- III. Iqtisodiyotni rivoilantirish va erkinlashtirish  
(Tillarang – iqtisodiyotni rivoilantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi)
- IV. Ijtimoiy sohani rivoilantirish  
(Oqil rang – hayot va aholining munosib turmush tarzini ta'minlash ramzi)
- V. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, o'zaro manfaatlari va amaliy tashqi sivosat  
(Oq rang – tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi)

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat. Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalg a oshirish nazarda tutilmoxda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlanib bormoqda.



2017-2021 yillarda  
O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning  
beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini  
amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan davlat dasturlari

2017 yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”,  
2018 yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar  
ni qo‘llab-quvvatlash yili”;  
2019 yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”;  
2020 yil “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”.  
2021 yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini  
mustahkamlash yili”



### “DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHINI TAKOMILLASHTIRISH” yo‘nalishida

Demokratik islohotlami chuuq  
urlashtirish va mamlakatni m  
odemizatsiya qilishda Oliy  
Majlis, sivosiy partiyalarining  
rolini vanada kuchaytirish;

Davlat boshqaruvi tizimini  
isloh qilish;

Jamoatchilik boshqaruvi  
tizimini takomillashtirish.

## **“Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish” deb nomlangan birinchi yo’nalishi bo’yicha quyidagi ishlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan**

-  davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish
-  qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash
-  davlatning hayotida siyosiy partiyalarining rolini kuchaytirish

Prezidentimizning 2019 yil 30 oktyabrdagi “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishning istiqbolli yo’nalishlarini belgilab bergani bilan ahamiyatli bo’ldi. Prezidentimizning mazkur qarori bilan Fuqarolik jamiyatni shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi” etib qayta tashkil etildi. E’tiborlisi, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi asosida davlat va jamiyat o’rtasida ochiq muloqotni tashkil etib, fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etishning optimal yondashuvlarini ishlab chiqish ham Markazning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

“Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish” yo’nalishi ijrosi doirasida fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish hamda ularning ijtimoiy va sivosiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Parlamentning ijro hokimiyatiga ta'siri va qabul qilingan qonunlarning samarali ijrosiga erishish parlament nazorati orqali ta'minlanadi. So'nggi yillarda parlament nazoratining yangi shakli – "hukumat soati"da hukumat a'zosining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish amaliyotining yo'lga qo'yilgani ijobiy holatdir.

O'tgan davrda ijro hokimiyati faoliyati ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish borasida keskin o'zgarishlar ro'y berdi.  
Jumladan;

2016 yilda 14 ta parlament eshitivi o'tkazilgan

2019 yilda ushbu ko'rsatkich 18 tani

2020 yilning o'tgan davrida 17 ta parlament eshitivi

6 marotaba «hukumat soati» o'tkazi ldi, davlat va xo'jalik boshqaruvi or ganlarining mansabdor shaxslariga 11 ta parlament so'rovi yuborildi

Qayd etish joizki, taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbolli maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. Bunday maqsadlar muayyan davrga mo'ljallangan davlat yoki strategik dasturlarni qabul qilish orqali namoyon bo'ladi.

Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda xalq davlatini barpo etish yo'lini yoritib turuvchi mayoq hisoblanadi.

Konstitutsianing 2-moddasini belginlangan "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" normasini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Yangi tizim inson manfaatlari tushunchalari o'zaro shunchalik bog'lanib ketganki, ularni bir-biridan aslo ajratib bo'lmaydi. Virtual va Xalq qabulxonalariga yiliga 1 milliondan zivod murojaat kelib tushmoqda. Fuqarolarning shikoyat va takliflarini to'g'ridan-to'g'ri Prezidentga yetkazadigan ushbu tizimning yaratilishi xalqdan uzoqlashib qolgan ayrim rahbarlarni o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqishga, xalqning turmush sharoitini o'zida his qilish, hamda ta'bir joiz bo'lsa, qarorlar qabul qilishda xalq bilan hisoblashishga olib keldi. Mazkur islohotlar konstitutsiyaviy normaga yangicha hayotiy kuch bag'ishlab kelmoqda. Ayniqsa Asosiy qomusimizning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deb mustahkamlanishi davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy maqsadi va yo'nalishlarini yaqqol ifoda etdi.

Bugungi kunda an'anaviy axborot vositalari bilan birga Internet, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda katta rol o'ynamoqda. Axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar mansabdor shaxslarni o'z ishini qonuniy asosda to'g'ri tashkil etishga undamoqda, kerak bo'lsa mansabdor shaxslar ularni fikri bilan o'rtoqlashishga majbur bo'lmoqdalar. Prezidentimiz tomonidan O'zbekistonda jamoatchilik nazorati va ommaviy axborot vositalari vakillarining qonuniy haq-huquqlariga hech qanday shaklda tazyiq o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi haqida bir necha marotaba ta'kidlanganligi ham ushbu sohadagi islohotlarni qanchalik demokratik modernizatsiya qilishda muhim ekanligidan dalolat beradi.



Bu o'tgan villardagi ijobiy o'zgarishlardan yana biri, ancha yillar davomida shu yurtda yashab uning rivojiga hissa qo'shib kelavotgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish istagida tegishli tartibda murojaat etganlariga qaramay ularning talablari deyarli qondirilmas edi.

1991 yildan 2016 yil dekabrgacha 482 kishi O'zbekiston fuqaroligini olgan bo'lса. 2016 yil dekabrdan 2020 yilgacha bo'lgan muddatda bunday shaxslar 15 000 ming nafarni tashkil etdi. Bundan tashqari, joriy vilning mart ovida yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qomunga binoan 1995 yil 1 yanvarga qadar O'zbekistonda yashab kelgan 50 000 fuqaroligi bo'lмаган shaxslar O'zbekiston fuqarosi deb tan olindi.



### **QONUN USTUVORLIGINI ТАЪМИNLASH VA SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

- Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;
- Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish;
- Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish;
- Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash;
- Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.



Konstitutsiyasining 32-moddasida fuqarolarning siyosiy huuqqlari sifatida belgilangan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Konstitutsiyaning 46-moddasida belgigangan xotin-qizlar va erkaklar teng huuqligini ta'minlashga qaratilgan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huuq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" va "Xotin-qizlarni tazviq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Konstitutsivaning davlat yokimiyatini amalga oshirish faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qismini mustahkamlovchi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Konstitutsivaning 42-moddasida belgilangan ilmiy va texnikaviy ijod erkinligini ta'minlash uchun 2019 yil 29 oktyabr kuni "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur misollarni ko'plab keltirib o'tish mumkin. Davlat dasturining ikkinchi yo'naliishi qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 44-moddasini belgilangan har bir shaxsga o'z huuq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huuquqini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi qabul qilindi. Mazkur kodeks asosida fuqarolar buzilgan huuqlarini tiklash uchun mamlakatimizda yangi tashkil etilgan ma'muriy sudlarga shikoyat qilishi mumkin bo'ldi.

## **Ushbu yo'nalishda 2017-2021 yillarda**

**Jinovat va jinovat-  
protsessual qonun  
hujjatlарини янада  
такомillashtirish  
kontseptsiyasini  
ishlab chiqish,**

**Sud, huquqni  
muhofaza qilish va  
nazorat organlari  
xodimlarini o'qitish,  
tanlash va joy-joyiga  
qo'yish tizimini  
takomillashtirish,**

**Murojaatlarni  
muntazam tahsil  
qilishni hamda vaqt-  
vaqt bilan uning  
natijalarini e'lon  
qilib borish,**

**Advokaturani  
rivojlantirishni,  
notariat tizimini va  
FHDYo organlarini  
isloh qilish.**

Qayd etish joizki, Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan so'ng O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga 7 marotaba o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga so'nggi yillarda kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar bevosita Harakatlar strategiyasining yo'nalishlari bilan bog'liqligini qayd etish zarur. Mazkur ikki hujjat bir-birini boyitishga, to'ldirishga qaratilgan chambars huquqiy tizimga aylandi.

Biz sud-huquq sohasini tubdan isloh qilishga alohida ahamiyat berayotganimiz beziz emas. Chunki,

Kiritilgan dastlabki o'zgartish va qo'shimchalar mamlakatimizda sudiyalar mustaqilligini ta'minlash va inson huquqlari himoyasini kuchaytirish maqsadida sudsiz ixsoslashtirishga qaratildi. Buning zamirida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash orqali samarali va haqqoniy odil sudlovga erishish maqsadi mujassamdir. Zero, sud hokimiyati mustaqil bo'lmash ekan, sudsiz tomonidanadolatli qarorlar qabul qilinmaydi. Buning ogibatida mamlakatda huquq ustuvorligini ta'minlab bo'lmaydi.

## **O'tkazilgan sud-huquq sohasidagi konstitutsiyaviv islohotlar natijasida quyidagi ishlar amalga oshirildi**

2016 yilga qadar jinoyat ishlar bo'yicha sudlar tomonidan sanoqli darajada oqlov hukmi chiqarilgan bo'lsa, so'nggi 4 yil davomida nohaq ayblangan 2,3 mingga yaqin kishi oqlandi.

2017 yil 6 apreldagi qonun bilan Konstitutsianing 111-moddasi yangi tahrirda qilindi qabul

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirildi

Quyi xo'jalik sudlar iqtisodiy sudlarga aylantirildi

Sudyalar oliy kengashiga doir normaning Konstitutsiyadan joy olgani esa uning konstitutsiyaviv maqomga ega ekanidan darak beradi. Bugungi kunda bunga o'xshash hamjamiyatlarning maqomi Frantsiya, Italiya, Bolgariva, Pol'sha, Ukraina, Oozog'iston, Armaniston kabi davlatlarning konstitutsiyalarida Niderlandiya, Daniya, Shvetsiya, Irlandiya, Litva, Buyuk Britaniya, Vengriya kabi davlatlarning qonunchiligidagi mustahkamlab qo'yilganiga guvoh bo'lish mumkin.

Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan bir vaqtida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonun bilan Sudyalar oliy kengashinining faoliyati batafsil tartibga solinishi bilan uning konstitutsiyaviv maqomi yanada mustahkamlandi.

Qonunga ko'ra, sudyalyik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, eng malakali va mas'uliyatli mutaxassislar orasidan sudyalaryni tayinlash, sudyalar daxsizligi buzilishining va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Ushbu tajriba 1985 yil 29 noyabrdagi BMT Bosh Assambleyasini tomonidan ma'qullangan Sud organlari mustaqilligining asosiy tamoyillariga to'liq muvofiq keladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardan AQSh, Angliya, Frantsiya, Yaponiya kabi davlatlarda ham butun mamlakat miyvosida yagona sudlov organining mayjudligi huquqni qo'llash amaliyotining samarali tarzda kechishini ko'rsatmoqda.

Ma'muriy sudlarning tashkil etilishi har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini davlat organlari va mansabдор shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish orqali himoyalanish imkoniyatini kuchaytirsa, iqtisodiy sudlarning tumanlararo, tuman hamda shahar miyvosida tashkil etilishi ushbu ma'muriy-hududiy birliklardagi tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish imkoniyatlarining joylarda turgan holda oshishiga olib keladi.

Xorijiy mamlakatlardan Avstriya, Germaniya, Finlandiya, Shvetsiyada ham davlat organlari va mansabдор shaxslarning fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxldor bo'lgan xatti-harakatlari va qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega ixtisoslashgan ma'muriy sudlarning faoliyat yuritayotganini kuzatish mumkin.

## O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida sud-huquq tizimida kiritilgan o'zgarishlar

Konstitutsianing 107-moddasi avvalgi tahririda sudlarning vakolat muddati ko'rsatib o'tilgan edi. Mazkur vakolat muddati 2017 yil 12 aprelda qabul qilingan qonun bilan "Sudlar to'g'risida"gi Oonunga kiritilgan 631-moddada mustahkamlab qo'yildi.

2017 yil 31 maydagi konun bilan давлат ҳокимияти тизимида Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суднинг ўрни ва ролини кучайтиришга каратилган Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 108 ва 109-моддаларига ўзгариш ва қўшимчалар киритildi.

2019 yil 5 mart kuni qabul qilingan "Hukumatni shakl lantirish tartibi demokratla sbtirilishi va uning mas'uliv ati kuchaytirilishi munosab ati bilan O'zbekiston Respublikasining avrim qonun hujjalariга o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan Konstitutsivaga muhim o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

2019 yil 4 sentabr kuni Konstitutsianing 117-moddasiga kiritilgan o'z gartish va qo'shimchala rga binoan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etg'anligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanavotgan shaxslar sa ylovda ishtiroy etmaydi.

## Sud-huquq tizimidagi o'zgarishlar

1. Sudyalar birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o'n yillik muddatga va sudxvalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda tayinlanadi yoki sayylanadi. Sudxvalarning bunday vakolat muddatiga tayinlanishi yoki saylanishi sudxvalar mustaqilligining yanada kuchavishiga xizmat qiladi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyiy sudi konstitutsiyiy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumilashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdag'i konstitutsiyiy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi.
3. Vazirlar Mahkamasining a'zolariga nomzod Bosh vazir tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish va ma'qullash uchun taqdim etiladi. Nomzod ma'qullangach O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu o'zgartish parlament oldida faqatgina Bosh vazirning emas, balki hukumat har bir a'zosining mas'uliyatini kuchaytirishga, qonunlar ijrosini mas'uliyat bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi.
4. Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan va uncha og'ir bo'limgan jinovatlarni sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovida ishtirok eta oladilar.
5. Ma'muriy organlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarining ko'rsatilishi munosabati bilan ular o'tasida vujudga keladigan ommaviy-huquqiy nizolarni hal qilishga qaratilgan yangi ixtisoslashgan sudlar – ma'muriy sudlar tuzildi. Shu munosabat bilan 203 ta tuman (shahar) ma'muriy sudlari negizida viloyat markazlarida 14 ta tumanlararo ma'muriy sudlarni tashkil etildi.

## Xulosa

Harakaflar strategiyasidagi g'oyalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalaridan olingan. O'z navbatida undagi yangi g'oyalar asosida Konstitutsianing o'zi ham takomillashtirilmoqda. Bugun O'zbekiston mazkur ikki hujjatning o'zaro aloqasi tufayli siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'anaviy taraqqiyotga erishmoqda.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi g'oyasini fuqarolarimizning ongi va qalbida chuqr o'rinn egallashi, farzandlarimizga bolalikdan "Kelajak qonunga rioya qilishdan boshlanadi" degan g'oyani singdirishimiz zarur.

## **12-SEMINAR. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O'RNI VA NUFUZINING ORTIB BORISHI (4 SOAT).**

### **Reja**

1. Xalqaro reyting va indekslar tushunchasi.
- 2.O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini.
- 3.O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini oshirish chora tadbirlarining ishlab chiqilishi.
- 4.O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston mavqeining ortib borishi.

### **Seminar mashg'ulotining loyihasi.**

Mashg'ulotning maqsadi va vazifalari: ..Talabalarni xalqaro reyting va indekslar tushunchasi bilan tanishtirish, xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo'yicha respublika kengashi tashkil etilganligi va uning asosiy vazifasi ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston o'rnini quyidagilar orqali yaxshilashdan iborat ekanligi haqida ma'lumotni yoritish .

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni hisobga olish, shuningdek mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish;

davlat hokimiysi va boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish;

davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan NHH va ularning loyihalarini mamlakatimizning o'rniga ta'siri nuqtayi nazaridan kompleks baholab borish kabi vazifalar qo'yilganligiga e'tibor berish.

**Mashg'ulot usullari:** "Pinbord texnikasi ", "FSMU", "Xulosa".

**Mashg'ulot instrumenti:** A4 formatdagi qog'oz, rangli ruchka va markerlar, A3 formatdagi tasvir tushirilgan ilova, jadval.

**Mashg'ulotdan kutilayotgan natija:** Qo'llanilayotgan usullar orqali tafakkur jarayonini rivojlantirishga oid bilim, ko'nikma, malakalar-talaba faoliyatida namoyon bo'ladi. Izlanish natijalari o'qituvchi va talabani ijodkorlikka, yangilik olishga ilhomlantiradi

**Seminar mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:** mashg‘ulot 3 ta bosqichda o‘tkaziladi.

### **“Pinbord”usuli**

Inglizchadan pin- maxkamlash, vord-yozuv taxtasi)munozara usullari yoki suxbatni amaly usul bilan moslashdan iborat.Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruxlashni amalgalashga oshirishga jamoa tarzida yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.



O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qilini so‘raydi.To‘g’ridan to‘g’ri yoki aqliy hujamning boshlanishini tashkil qiladi.



Fikrlarni taklif qiladilar,muhokama qiladilar,baxolaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar.Ular tayanch qisqa xulosaviy fikrlarini aloxida qog’ozlarga yozadilar va doskada maxkamlaydilar.

#### **Guruhi vakillari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:**

- 1.Yaqqol xato yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
2. Bahsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;

3. Fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarni aniqlaydilar;
4. Shu belgilar asosida doskaga barcha fikrlarni (qog‘oz va varaqlarga) guruhlarga ajratadilar;
5. Ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

## 2-ilova

### “FSMU” usuli

**(F)-Fikringizni bayon eting.**

**(S)-Fikringizni bayoniga biror sabab ko‘rsating.**

**(M)-Ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.**

**(U)-Fikringizni umumlashtiring.**

Ushbu usul tinglovchilarning o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikriga boshqalarni ishontirishga, oshkora bahslashishga, egallagan bilimlarni taxlil qilishga, ularni qay darajada egallaganini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

### O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston mavqeining ortib borishi.

<b>M</b>	<b>Ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.</b>
<b>F</b>	<b>Fikringizni bayon eting.</b>
<b>S</b>	<b>Fikringiz bayoniga biror sabab ko‘rsating.</b>
<b>U</b>	<b>Fikringizni umumlashtiring.</b>

### 3-ilova

#### “Xulosa”jadvali

<b>xa</b>	<b>Savollar</b>	<b>yo‘q</b>
+	Xalq bilan samarali muloqot mexanizmlari Harakatlar strategiyasining bandida o‘z aksini topganmi?	
	Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi jamoatchilik nazorati samaradorligining muhim sharti ekanini e’tirof etasizmi?	
+	“O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” portali ishga tushdimi?	
	Kengashning ishchi organlari OTM vazirligimi?	+
+	Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika Kengashi tashkil etildimi?	
+	“O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni” qabul qilinganmi?	
	O‘zbekiston”Ochiq ma’lumotlarni kuzatish” xalqaro indeksida 1-o‘rinni egalladi	+
	AQSh davlat departamenti tomonidan O‘zbekiston diniy erkinlik sohasidagi” maxsus kuzatuvdag“ davlatlar” ro‘yxatida qoldirildi.	+

## **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar:**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqımız bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari dadil qadam qo'ymoqdamiz". O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. 01.09. 2018 yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 25 yanvar.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T. 12. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. T. 14. - Toshkent: O'zbekiston, 2006.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
11. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
12. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
13. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir. Xalq so'zi. 2012, 10 may.
14. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. - Toshkent: O'zbekiston, 2015.

## **Asosiy adabiyotlar**

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. 2017 yil 7 fevral

16. Jo‘rayev N. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. To‘ldirilgan, qayta nashr. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2013.

17. Mustaqil O‘zbekiston tarixining dastlabki saxifalari. - Toshkent, 2000.

18. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. - Toshkent: Ma’naviyat, 2011.

19. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullayev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: Sharq, 2006.

20. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.

21. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.

22. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Ташкент: Адабиёт учқунлари, 2018.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

23. Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.

24. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.

25. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. –Toshkent: Moliya, 2003.

26. O‘zbekiston mustaqillik yillarida. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.

27. O‘zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2005.

28. O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.

29. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.

30. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

31. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.

32. Yunusova X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009.

33. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70- 80 yillar misolida). Qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 1999.

34. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.
35. Интерактивные методы обучения истории Узбекистана. Методическое пособие. И.Шамсиева, Л.Махмутходжаева, Ф.Усарова. – Тошкен, Инновацион ривожланиш, 2019.
36. O‘zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar texnologik xaritalari. S.Mahkamov, A.Odilov. -Toshkent.: Fan va texnologiya, 2012.
37. Pedagogik texnologiya asoslari. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
38. Malaka oshirish jarayonlarida o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurlarini rivojlantirish. Mahkamov U.I., Z.M.Mamatqulova.-Toshkent: Fan va texnologiya.2017.
39. Xoliqova R.E. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T., 2020 .
40. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).Ishmuxamedov R.Abduqodirov A.Pardaev A.Toshkent. Iste’dod.2008.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-seminar. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.....	5
2-seminar. Mustaqil O‘zbekiston respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.....	16
3-seminar. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li .....	20
4- seminar. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar. ....	11
5- seminar. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.....	46
6-seminar. O‘zbekiston respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.....	49
7-seminar. Mustaqillik yillarda O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.....	52
8- seminar. O‘zbekiston respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.....	74
9-seminar. Mustaqillik yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi.....	85
10-seminar. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.....	96
11-seminar. Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.....	99
12-seminar. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi.....	117
Adabiyotlar.....	121